

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

TOG'LI
O'RMONDAGI
OPERATSIYA

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqariladi. 6-iyul 6-oktabr, №40 (3050)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-biz Facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mv_vatanparvar Instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/mudofaa YouTube.com/c/uzarmiya

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIIY VA JAMOA QAROVCHILIK VA VATANPARVARLIK GAZETI

www.mv-vatanparvar.uz

KO'ZIM QAROG'IDASAN, VATANI!



4-5

TO'FON
OLDIDAN
JIMJITLIK



6

QIMMATLI
KO'NIKMALAR
O'ZLASHTIRILDI



7

MUHOKAMADA KADRLAR TAYYORLASH MASALASI

Belarus Respublikasi Mudofaa vazirligi kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Ivan Mitin boshchiligidagi delegatsiya yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari tajribasi bilan tanishdi.



Dastlab xorij harbiy delegatsiyasi O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasida kutib olindi. Ushbu oliy harbiy ta'lim muassasasi boshlig'i polkovnik Bobur Shayakubov rahbarligida mehmonlarga akademiyaning tarixi, hududi va o'quv jarayonlari haqida

ma'lumot berildi. Ikki davlat harbiy kadrlarni tayyorlash muassasalari rahbarlari o'rtasida ikki tomonlama muzokara o'tkazildi. Shundan so'ng akademiya muzeyi, o'quv xonalari, axborot-resurs markazi, mashg'ulot jarayonlari, yotoqxona hamda harbiy o'quv texnikalarining imkoniyatlari bilan

tanishtirildi. Mehmonlar akademiyaning o'quv jarayonini ta'minlash bazasini ko'zdan kechirdi.

Navbatdagi kunda Belarus harbiy delegatsiyasi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining infratuzilmasi bilan yaqindan tanishdi. Bilim yurti boshlig'i polkovnik Shavkat

Mamajonov xorijlik hamkasblariga o'quv maskanining qizg'in faoliyati, ta'lim jarayoni va imkoniyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berdi.

**Mudofaa vazirligi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti**



O'ZLIK

Har bir fuqaroning muqaddas burchi

Vatan – millatning baxtli kelajagi bilan bog'liq tushuncha. Ona O'zbekiston har birimiz uchun eng muqaddas qadriyatdir. Vatan qadriga yetish, ardoqlash, uni asrab-avaylash, himoya va xizmat qilish, yaratilgan sharoitlarga shukur qilish barchamizga ham qarz, ham farzdir.

Inson qayerda dunyoga kelsa, o'sha yer uning uchun qadri Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo'lmaydigan, hamma narsadan qimmatli dargohdir. Payg'ambarimiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu bilan Madinayi munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida orqalariga o'girilib, ya'ni Makkayi mukarramaga qarab: "Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hecham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lar edim", deganlar.

Demak, Vatanni sevish, uni sog'inib yashash insoniyat fitratida mavjud bo'lgan nozik hisdir. Biror sabab bilan Vatanni tashlab, boshqa yurtlarga ketgan kimsa eng og'ir damlarida uni

qo'msab, ko'z oldiga keltirishi va tug'ilib o'sgan zamini haqida biror qayg'uli xabar eshitganda qalban ezilishi, yutuqlaridan quvonishi ham Vatanga bo'lgan muhabbatning belgisidir.

Tarixdan ma'lumki, birorta millat boshqa bir millatni tahqirlamoqchi yoki oyoqosti qilmoqchi bo'lsa, avvalo uning Vatani bosib olib, vayron qilgan yoki yurtidan quvib chiqargan. O'z Vatani dushmanlar qo'lida qolganini ko'rgan millat uchun bundan ortiq xo'rlik va azob bo'lmasa kerak. Zero Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir.

Xalqimizda "O'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtida gado bo'l", degan hikmatli naql bor. O'z huzur-halovatini o'ylab, o'zgalarni unutgan

kishi hech qachon ona Vatani, xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lolmaydi.

Vatan himoyasi uchun harbiylar safida turish ham dunyoviy, ham diniy tarafdin yuksak e'tirofga sazovor sanaladi. Xususan, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Bir kecha kunduz "ribot", (ya'ni dushman qarshisida turish) bir oy tutilgan nafl ro'za va o'qilgan tungi namozdan yaxshidir", deb marhamat qilganlar (*Imom Muslim rivoyati*).

Hakimlar aytadilar: "Kishining vafodorligi uning o'z Vatani uchun qayg'urishidan, birodarlarini sog'inishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga o'kinib yashashidan bilinadi". Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi uni Vatani himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo'shishga undashi lozim.

Oxirgi yetti yilda harbiy sohaning barcha yo'nalishlarida bo'layotgan kompleks choralar va islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo'shinlarning tayyorgarlik darajasi ham o'zgardi. Harbiy qism va poligonlardagi

infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi.

Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqladi. Bundan tashqari, Vatan himoyasida turish eng oliy burch ekanligi yana bir bor aniq mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 64-moddasida shunday yoziladi: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlarlar".

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Vatanimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy jangovar qudratini oshirish va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, "Xalq va armiya bir tan-u bir jondir!" tamoyilini ro'yobga chiqarish har bir o'zbek fuqarosining muqaddas burchidir.

Zoirxo'ja O'LMASXO'JAYEV,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori,
Alisher MADRAHIMOV,
Ijtimoiy-ma'naviy
tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi

MUTOLAA MADANIYATI



Yangi O'zbekiston baxtiyor yoshlar mamlakatidir. Mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta, bu davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor ertaga ularning ulkan yutuqlariga poydevor bo'ladi.

Kelgusida har uchinchi rahbar yoshlardan bo'ladi. Shu bois yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzi umumiy boyligining 66 foizi inson kapitaliga, ya'ni insonning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQShda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77 foiziga teng. Kapital taraqqiyot tarbiya va ta'limdan boshlanadi. Yosh avlodga yo'naltirilgan har qanday sarmoya kun kelib, ming-ming hissa bo'lib qaytadi. Shu ma'noda O'zbekiston yoshlariga zo'r havas qilish mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonda inson kapitali uchun katta maqsadlar va mablag'lar sarflanmoqda. O'z navbatida, xalqimizda "Yangi O'zbekiston orzusi" paydo bo'ldi. Bu nima degani? Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda.

Ta'lim-tarbiyaning muhim jabhalaridan biri – yoshlarda mutolaa

madaniyatini takomillashtirish ishlariga e'tibor yetarlimi, degan savol ochiq qolib kelmoqda. Vaholanki, mutolaa intensivligini oshirish bilimli, ma'rifatli insonlarni tarbiyalashning muhim sharti, bunga esa mutolaa madaniyatini shakllantirmasdan erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonini tizimli o'rganish, mavjud holatni va uning rivojlanish istiqbollari tahlil qilish, xorijiy tajribalarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqish va bunda milliy o'ziga xosliklarni e'tiborga olish zarur.

Mutolaa madaniyatini o'qish, ilmiy-ma'rifiy shart-sharoitlar bilan uyg'un jarayon sifatida shakllantirishning kun tartibiga chiqdi. Mutolaa jarayonlariga milliy g'oya doirasida yoshlarni tarbiyalashning muhim bo'g'ini sifatida qarab, ularni tizimli takomillashtirish yo'llarining nazariy asoslab berilmagan.

Mutolaani ma'naviy hayot hodisasi sifatida nazariy jihatdan tushunishga urinishlar qadimgi Xitoy va antik davr mutafakkirlari orasida ham uchraydi. N. Stefanovskaya izlanishlarida amalga oshirilgan turli tarixiy davrlarda mutolaa tabiatini retrospektiv modellashtirish fikrimizni ta'kidlashga imkon beradiki, kitobxon faoliyatiga maqsadli ta'sir qadim zamonlardan beri amalga oshirilgan, ammo mutolaa mazmunini maqsadli tartibga solishni nazariy tushunishning boshlanishi, bizning fikrimizcha, keyingi davrlarda paydo bo'la boshlagan. Shu bilan birga, zamonaviy davrda ommaning ijtimoiy va intellektual faolligini rag'batlantirish vositasi va shaxsni o'zgartirish, uning ko'p qirrali rivojlanishiga ta'sir qilish vositasi sifatida mutolaa tushunchasini shakllantirish kuzatilmoqda.

Kitobxonlik, uning afzalliklari, oilada mutolaa madaniyatini tarkib toptirish masalalari ulug' mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Xususan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy: "...yoshlikdan boshlab zehr va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgu, safsata, molo (ya'ni ma'nosiz) kabi behuda so'zlar bilan o'tkarmay, har xil kitob, g'azita va jurnollarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur", deydi.

O'zbekistonda kitob mutolaasining sotsiologik masalalari birinchi bo'lib A. Umarovning ilmiy ishlarida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganib chiqildi. B. G'aniyeva esa mutolaa madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda kitobxonlik muammosi kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib, ayniqsa o'rta ta'lim muassasalari o'quvchi-

yoshlarining mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. O'zbek kutubxonashunos olimlaridan E. Yo'ldoshevning bolalar kutubxonalarida kitobxonlar o'qishiga rahbarlik qilish hamda yosh avlod vakillarida o'qish madaniyatini shakllantirish yuzasidan chop etilgan ilmiy izlanishlari alohida e'tiborga molikdir. Poeziyaga qiziqish uyg'otish, maktab o'quvchilari ma'naviy-ruhiy dunyosi haqidagi masalalar T. Polozova, Y. Klyatovskiy, L. Balashova, I. Prilish ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan. Yuqori sinf o'quvchilarining o'qishiga rahbarlik qilishning shakl va usullari bo'yicha A. Lebedova va D. Tupelskaya va boshqa olimlarning ishlari mavjud. Shuningdek, keyingi yillarda Rossiya Federatsiyasida himoya qilingan A. Abramov, N. Kiselev, L. Menchikova, A. Savenkov, N. Seliverstova, N. Yumasheva va boshqalarning dissertatsion tadqiqotlari mavjud.


1990-yillar va 2000-yillarning boshlarida mutolaa muammolari o'quvchilarning katta qismining "jiddiy" (*rivojlanayotgan*) mutolaadan madaniy va ijtimoiylashuvning asosi sifatida o'qishdan bosh tortishi atrofida to'plangan, bu esa mutolaa modasi tufayli edi. XX asrning oxiridan hozirgi kungacha aholining bo'sh vaqtini o'tkazishda kitobxonlik ulushining kamayish muammosi hukmronlik qilmoqda.

Ma'lumki, mutolaa madaniyatini shakllantirish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ulardan biri bolalar mutolaasini to'g'ri tashkil qilishdir. Bolalar mutolaasiga bag'ishlangan maxsus adabiyotlarda ularning turli ko'rinishlari beriladi. Bolalar mutolaasining taniqli tadqiqotchilaridan biri V. Nevskiy tomonidan bolalar o'qishini tasniflashdagi chalkashliklarni bartaraf etishga intilish kuzatiladi. U bolalar mutolaasining quyidagi ko'rinishlarini ajratadi va har biriga alohida ta'rif beradi:

- oilaviy mutolaa;
- uydagi mutolaa;
- sinfdagi mutolaa;
- sinfdan tashqari mutolaa.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan xalqimiz, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kamoloti yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi.

Abdulvohid ABDULAZIZOV,
Namangan davlat universiteti
dotsenti



TOG'LI TOG'LI O'RMONDAGI

- + Jangchi, dushman yiqildi, degani o'ldi degani emas! Tekshir!
 - + Xo'p bo'ladi!
 - + Uning qurolini olib ketish uchun yana kelamizmi?
 - + Aslo yo'q!
 - + Unda ol qurolini!
 - + Xo'p bo'ladi!
- Guruh komandiri baland ovozda:
+ Yo'lak! + deydi.
Ishg'ol guruhi xavfsiz yo'lak hosil qiladi va ular tezda voqea joyini tark etadi.

Razvedka ma'lumotlari to'g'ri va aniq chiqdi: shartli dushman tog'li o'rmondagi tashlandiq uylarning biriga joylashib olib, yaqin hududdagi aholi uchun real xavfga aylangan. Bu o'z vaqtida bartaraf etilmasa, oqibati bilan ham kurashishga to'g'ri keladi.

Tog' ishg'ol guruhi hududda jangovar amaliyotlarni olib borish uchun mo'ljallangan texnikalarda belgilangan koordinata bo'ylab harakatga tushdi. Ammo shartli dushman joylashgan nuqtaga yetib bormay, texnikalarni qoldirishga to'g'ri keldi. Chunki motor ovozi rejaga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

O'rmon ichida, tog' tepasidan oqib tushuvchi kichik soy suvi biroz pasaygan. O'sha yerdan yurish har tomonlama xavfsiz: ham bir qarashda ko'zga tashlanmaysan, ham qadam tovushingni soy shovqini bosib ketadi. Guruh ana shu yo'nalish bo'ylab harakat qildi.

Ana, cho'ponlarning tashlandiq uyi hovlisida shartli dushmanlarning biri jangovar qurolni yelkasiga tashlaganicha soqchilik qilmoqda. Ishg'ol guruhi tezkorlik bilan ishga kirishdi. Yigitlar atrofnii kuzatib turguncha mergan epchillik bilan daraxtga chiqib, o'ziga qulay joy topib oldi. U zumda daraxt bilan shunday bir tan-u bir jon bo'lib ketdi-ki, ko'rgan ko'z ilg'ay olmaydi. Birinchi o'qni ham aynan o'sha mergan otdi. Soqchilik qilayotgan shartli dushman o'q qayerdan kelganini anglashga ham ulgurmad.

Shundan so'ng guruh yana ikki tarkibga ajralib, binoning old va orqa tomonidan qurshovga kirishdi. *(Binoga yaqinlashgan guruhlarning qo'l harakatlari bilan o'ta aniqlikda "so'zlashishi"ning o'zi alohida mavzu).*

Buyog'iga endi harbiy mahorat o'z so'zini aytadi. Yurt posbonlari matematik amallar kabi ishlaydi. Yigitlarimizning qurollaridan otilib chiqayotgan o'qlar ovozi va shartli dushmanning ajnabiy tildagi oxirgi gaplari quloqqa chalinadi...

Jarayonni mashg'ulot rahbari bilan birgalikda harbiy mavzudagi film tomosha qilayotgandek ko'rib turibmiz. U zarur bo'lmasa, vaziyatga ko'pam aralashmaydi, yigitlarning o'ziga qo'yib beradi. Ammo muhim jihatlarni eslatib turishni joiz topadi:

– Jangchi, dushman yiqildi, degani o'ldi degani emas! Tekshir!





OPERATSIYA



– Xo‘p bo‘ladi!
– Uning qurolini olib ketish uchun yana kelamizmi?
– Aslo yo‘q!
– Unda ol qurolini!
– Xo‘p bo‘ladi!
Guruh komandiri baland ovozda:
– Yo‘lak! – deydi.
Ishg‘ol guruhi xavfsiz yo‘lak hosil qiladi va ular tezda voqea joyini tark etadi. Tog‘li o‘rmondagi operatsiya shu tarzda muvaffaqiyatli bajarildi.

**Katta leytenant
Islomjon QO‘CHQOROV,
«Vatanparvar»**



Bo'linma, vzvod, batalyon taktik o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos tartib-qoidalar va qiyinchiliklari mavjudligini dala-o'quv maydonidagi harakatlar orqali kuzatish mumkin. Ularning bir musht bo'lib birikishi esa ana shu tartib-qoidalar va qiyinchiliklar ostida o'tadigan jangovar harakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Qodirjon Tursunov, Markaziy harbiy okrug qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev hamda jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi mutaxassislari kuzatuv ostida bo'lib o'tgan motoo'qchilar bo'linmasi taktik o'quvida ko'zlangan maqsadlarga erishildi.

TO'FON OLDIDAN JIMITLIK



Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi motoo'qchilar bo'linmasining "Kattaqo'rg'on" poligonidagi taktik o'quvini cho'l jimjitligini larzaga solgan to'fonga qiyoslash mumkin. Maxsus kolonna bilan uzoq masofalik yo'lni bosib o'tgan harbiy xizmatchilar o'zlariga tegishli jangovar va zirhli texnikalar, artilleriya qurilmalari poligonidagi o'quv nuqtalariga yetib keldi. Yuqori qo'mondonlikdan tegishli topshiriqlarni olgan bo'linma, vzvod hamda batalyon

komandirlari o'z shaxsiy tarkibini jang olib borish tartibi bo'yicha joylashtirishdi. O'quv mashg'uloti tungi sharoitda olib borilishi e'tiborga olinib, maxsus yoritqichlar yordamida hududlar chegarasi belgilandi.

Mashg'ulot quyosh ufqqa bosh qo'yib, atrofni qorong'ilik chulg'ab olishi oldidan qiruvchi samolyot va vertolyotlar juftliklari havodan aviatsiya zarbarlari orqali shartli dushmanning asosiy kuchlariga talafot yetkazishi

bilan boshlandi. Shundan so'ng reaktiv qurilmali hamda gaubitsali artilleriya moslamalari ishga kirishdi. Ular ortidan tank va BTRlardan nishonlarga qarata snaryadlar, yirik kalibrli pulemyotlardan o'qlar "yomg'iri" yog'dirildi. Qo'mondonlik boshqaruv nuqtalari va uchuvchisiz uchish apparatlari ma'lumotlari yordamida o't ochishga buyruq berilishi yuzasidan aniq va tezkor qarorlar qabul qilindi. Barcha qo'shin turlari jangovar qurollaridan nishonlarga qarata ketma-ket o't ochishdi. Amalga oshirilgan har bir harakat boshqa jangovar bo'linmalar, razvedka-qidiruv guruhlari faoliyati bilan muvofiq tarzda tashkillashtirildi. Harakatlar davomida komandirlarning qarorlari, xaritada ishlash va shaxsiy tarkibni oqilona boshqarishi muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur nazorat o'quv mashg'ulotlarining har bir o'quv nuqtasida bajarilgan harakatlar boshqa harbiy qismlardan taklif etilgan komandirlar tomonidan kuzatib borildi.

Bu jarayon ular uchun kelgusida ana shunday o'quvlarda qo'llaniladigan o'ziga xos ko'nikma, tajriba bo'lishi e'tiborga olindi. Har bir qo'shin turi, uning faoliyati qaysi yo'nalishga qaratilgan bo'lmasin, ularning barchasi o'quv mashg'uloti davomida bir maqsadni ko'zlangan holda harakat qildi.

Zamonaviy jang olib borish strategiyasini takomillashtirib borish harbiy xizmatchidan tinimsiz mehnat talab etadi. Ular tomonidan amalga oshirilgan mana shu harakatlar bunga misol bo'la oladi. Komandirlar esa strategik va taktik qarorlar qabul qilishda shaxsiy tarkibga o'rnak bo'lgan holda qo'l ostidagilarni hamisha olg'a boshlay oladi. "Kattaqo'rg'on" poligonidagi tungi mashg'ulotlarda motoo'qchilar bo'linmasi harbiy xizmatchilarining chidamliligi, matonati va mahorati yana bir bor sinovdan o'tkazilib, yuqorida sanab o'tilgan ana shu jihatlarda amalda namoyon etildi.

Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»





QIMMATLI KO'NIKMALAR O'ZLASHTIRILDI

Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida joylashgan Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida muhandis-sapyor bo'linmalari hamda sapyor-kinolog mutaxassislari uchun o'quv kursi tashkil etildi. Barcha harbiy okruglardan kelgan yigirmaga yaqin soha mutaxassisi ikki oylik tayyorgarlik kursi davomida bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Itlar odamzod tomonidan o'ziga o'rgatilgan birinchi uy hayvonlaridan hisoblanadi. Sodiq do'st deya ta'riflanadigan bu jonivorlar zamon rivojlanishi bilan juda ko'p sohalarda insoniyatning eng yaqin yordamchisiga aylandi. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ham jangovar va boshqa vazifalarni bajarishda xizmat itlari ko'magidan keng foydalanib kelinmoqda. Xususan, qo'shinlarda kinologiya sohasini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar doirasida Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida tashkil etilayotgan o'quv kurslari bugungi kunga kelib har tomonlama takomillashtirildi. Markazda o'tkazilgan qurol-aslahalar va portlovchi moddalarni qidirib topish yo'nalishidagi navbatdagi o'quv kursida harbiy qism va muassasalardan o'z xizmat itlari bilan kelgan kinologlarga malakali yo'riqchilar tomonidan mashg'ulotlar tashkil etildi.



Darslarning amaliy qismida umumiy va maxsus mashq kursi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Umumiy mashq kursi qo'yilgan vazifalarni bajarishda maxsus mashq kursidan oldin o'rgatiladigan dastlabki harakatlar hisoblanadi. Unda "O'tir!", "Tur!", "Yot!", "Sakra!" kabi o'ndan ortiq buyruq mavjud. Shuningdek, xizmat itlari yordamida bino ichida, shahar, dala va o'rmon sharoitida portlovchi moddalarni qidirib topish ko'nikmalari mustahkamlandi. Mazkur ko'nikmalar nazariy darslar jarayonida harbiy xizmatchilarning o'zaro tajriba almashishi orqali yanada boyitildi.

"Mira" laqabli xizmat itlari bilan kurslarda ishtirok etgan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugdan kelgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Muzaffar Omondullayev o'quv kursini a'lo bahoga yakunlagan tinglovchilardan biri bo'ldi. Bu borada unga nemis ovcharkasi zotiga mansub xizmat



iti har tomonlama ko'makchiga aylandi. "Mira" egasining "Qidir!", "Hidla!" kabi buyruqlari asosida chim ostiga, o'tlar orasiga va g'sht uyumi tagiga yashirilgan shartli bomba solingan qutini qisqa muddat ichida topishning uddasidan chiqdi. Mashg'ulotlar davomida "Mira"dan tashqari Belgiya ovcharkasi va labrador-retriver zotli xizmat itlari ham qatnashib, ularning har biri harbiy xizmatchilar bilan birgalikda belgilangan topshiriqlarni bajarishda kinologiya sohasining biz bilmagan qirralarini namoyish etdi.

– "Mira"ni yoshligidan katta qilib kelaman. Hozir u ikki yoshdan oshdi. Boshlang'ich va umumiy kurslardagi mashqlarni deyarli bexato bajarib keladi. Ikki oylik o'quv kursida ayrim mashqlarni birinchi marta bajarishimizga qaramay, "Mira" va boshqa xizmat itlari bir qancha yangi ko'nikmalarga ega bo'ldi. Hatto himoya nimchalari kiydirilib, boshiga kuzatuv kameralari o'rnatilgani ularning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi.

– Nega kinologlar asosan nemis va Belgiya ovcharkalari, pudel, border-kolli, labrador, spaniyel, setter zotli itlar xizmatidan ko'proq foydalanadi? Ularning portlovchi va giyohvand moddalar, qurol-yarog'larni izlab topishda alohida xususiyatlari bormi?

– Ma'lumki, barcha zotli itlar minglab chaqirim masofadan hid olish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, ularning qorong'ilikda ko'rish imkoniyatlari ham yuqori. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan zotli itlardan portlovchi va giyohvand moddalar, qurol-yarog'larni izlab topishda foydalanish samarasi yuqori hamda ularni bunga o'rgatish osonroq. Aytaylik, xohlagan bir xonaki itni bunga o'rgatish uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, cho'pon, ovchi, qo'riqchi va xizmat itlari o'z xususiyatlari hamda qobiliyatlariga qarab, turli vazifalarni bajarishga moslashgan.

Ma'lumki, bugungi tahlikali va favqulodda vaziyatlar harbiy kinologiya xizmatidan foydalanishni taqozo etadi. O'z navbatida, Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi hamda harbiy qismlarda faoliyat olib borayotgan kinologiya mutaxassislari ham to'rt oyoqli sodiq hamrohlari yordamida yurtimiz tinchligini qo'riqlashda burchlarini sidqidildan bajarib kelmoqda. Markazda muntazam tashkillashtirib turiladigan o'quv kurslari esa bu borada soha mutaxassislari uchun hamisha qimmatli ko'nikmalarni o'zlashtiruvchi tajriba maktabi bo'lib qolaveradi.

Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»

HARBIY BOSHQARUV PSIXOLOGIIYASI

Bo'lg'usi komandirlarda boshqaruv sifatlarini shakllantirish, ularni ertangi kun talabiga mos kadr qilib tayyorlash dolzarb vazifadir. Komandirlar boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari, liderlik, rahbar-bo'ysunuvchi munosabatlari, notiqlik malakasi, mazmunli va ta'sirchan nutq so'zlash ko'nikmasini amaliy faoliyatida qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishi lozim.



Boshqaruv faoliyatining psixologik mazmuni quyidagilardan iborat:

ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va baholash, boshqariladigan tizimning umumiy manzarasini tasavvur qilish (*diagnostik bosqich*);

mavjud imkoniyatlarning ishonchligini oshirish, u yoki bu yo'nalish bo'yicha yaqin va uzoq natija, oqibatlarini e'tiborga olgan holda, rivojlanish tizimidagi natijalarni baholash;

farazga asoslangan holda tayanch qaror qabul qilish, qabul qilingan qaror natijalarini baholash, qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha harakatlar tizimini rejalashtirish (*bu bosqichda yaqin va uzoq maqsadlar, ularga erishishdagi oqibatlar hisobga olinadi*).

Harbiy xizmat inson faoliyatining nafaqat yuqori ijtimoiy ahamiyatga egaligi bilan, balki kundalik odatiy sharoitlardan farqlanadigan turidir. Vatan himoyasi har qanday davrda har bir fuqaro uchun sharaflil hisoblangan. Armiya doimo jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, shuningdek xalqaro vaziyatlarning barcha jihatlari aks etgan. Harbiy xizmatchilar jangovar faoliyatining muhim ijtimoiy motivi o'z Vatani, oilasi, yaqinlarini himoya qilishdir. Aynan shu motiv bir qancha odamlarni o'zini qurbon qilishga undagan. Bu motiv odamda tug'ilgan paytda paydo bo'lmaydi, uning tarbiyasi

va ijtimoiy rivojlanishida shakllanadi, xulq-atvorida namoyon bo'ladi, dunyoqarashi va tafakkurida aks etadi. Shuning uchun har bir ofitserning majburiyati o'z bo'ysunuvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasi uchun doimo shay turishga tayyorlashdir.

Quruqlik kuchlar tuzilmasida ofitser asosiy figura hisoblanadi. Ofitserlar korpusining kasbiy tayyorgarligi darajasi Vatanimiz himoyasi bo'yicha murakkab va har xil vazifalarni yetarlicha hal etish imkoniyatini belgilab beradi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar ofitserlar tarkibi kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratadi. Hozirgi zamon ofitseri kasbiy faoliyati benihoya xilma-xil. Bugungi kunda harbiy xizmatchi uchun yaxshi jismoniy tayyorgarlikning o'zi yetarli emas.

Ofitser harbiy-kasbiy faoliyatidagi bir qator asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: harbiy jamoa faoliyatini boshqarish; bo'linma (*qism*) shaxsiy tarkibining ta'limi va tarbiyasi; o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy shakllantirish.

Harbiy boshqaruv – komandirning harbiy xizmatchi shaxsi, harbiy jamoaga qarorlarni amalga oshirishga imkon beradigan va o'ylangan maqsadga erishish yoki unga yangi mazmun berishga yo'naltirilgan ta'siridir. Amaliyotda ofitserning harbiy jamoani boshqarish qobiliyati bo'linma yoki qismning qo'yilgan vazifalarni bajara olishida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, jangovar vaziyatda g'alabaga faqat jamoaning kuchi bilan erishiladi. Shaxsiy tarkibni safarbar qila olish, harbiy xizmatchilarni

qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirish, o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qila olish muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi qobiliyatlardir, ana shunda harbiy jamoani boshqarish mahorati namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon harbiy-kasbiy faoliyati ofitserdan boshqaruv malakalarini tizimli ravishda shakllantirishni talab qiladi. Ofitser kadrlarni tayyorlashning asosiy vazifasi odamlarni jangovar vaziyatning murakkab va dinamik (*o'zgaruvchan*) sharoitlarida boshqara olish san'atiga o'rgatishdan iborat. Ofitserlarda boshqaruv malakasini uning shaxsini rivojlantirmay, o'z ustida ishlamay, kasbiy mahorat cho'qqisiga erishishga harakat qilmay turib shakllantirish mumkin emas. Boshqaruv san'ati yuqori tafakkurga ega bo'lish, erishilgan yutuqlarni idrok bilan baholay olish va kelgusi ishlarni aql bilan rejalashtira olish qobiliyatlarini egallash bilan shartlangan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, komandirning ongli ijodiy faoliyati ketma-ketlikda namoyon bo'ladi va bir necha bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichda ofitser asosiy belgilarni ajratishga harakat qiladi, ikkinchi bosqichda esa mavjud ma'lumotlar bilan ajratilgan belgilarni qiyoslash yo'li bilan vaziyatni aniqlash, uchinchi, vaziyatni oldindan bilish asosida qaror variantlarini ishlab chiqish, to'rtinchidan, bo'linma oldida turgan vazifani, ma'naviylik va javobgarlik pozitsiyasidan hal qilishning qulay variantlarini ishlab chiqish va beshinchidan, yakunlovchi bosqichda komandir oxirgi qarorni qabul qiladi.

Ta'kidlash lozimki, to'g'ri boshqaruv qarorini qabul qilish ofitserga nafaqat yuqori darajada fikrlashga, balki ichki hislariga (*intuitsiyasiga*) ham yordam beradi. Intuitsiya qat'iyatlilik va javobgarlik bilan birgalikda komandirga murakkab vaziyatlarda adekvat qaror qabul qilish imkonini beradi. Ikkinchi jahon urushi tahlili shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli o'tgan operatsiyalar ichida tavakkal qabul qilingan qarorlarning o'rni bor va ular 60% ni tashkil qilgan. Bunda shuni unutmaslik kerakki, intuitsiyaning tavakkal qabul qilingan qarorga hech



qanday ahamiyati yo'q. Intuitsiya chuqur bilim va ijodga bo'lgan ishtiyoq asosiga quriladi.

Bugungi kunda boshqaruv bilan bog'liq murakkab intellektual vazifalarni hal qiluvchi usullar mavjud. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

tayyor qarorni eslashga urinmasdan, muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish kerak; muammoli vaziyatning yechimini topishga harakat qilish bilan birga, ba'zi dastlabki ma'lumot odamni qaror qabul qilishga yaqinlashtiradi, boshqalari esa yo'q qilishi mumkin, shuning uchun mavjud ma'lumotlarni to'g'ri taqqoslash lozim;

aniq sharoitlardan chalg'ish zarur va yaxlit ko'rib chiqish kerak, bu esa oraliqdagi farazni shakllantirish imkonini beradi. Keyin esa yana ma'lum sharoitga qaytish, unga faraz bilan yondashish va muammoning yechimini topish kerak;

vazifani shakllantirishga bog'liq chegaralanishlar mavjud bo'lganda, iloji boricha cheklovsiz qaror variantini o'ylab ko'rish kerak, keyin esa bu cheklovga taalluqli omillarni hisobga olgan holda, tuzatish kiritish zarur; muammo ustida fikrlagan holda, ushbu vazifani hal qilishda albatta uchraydigan qiyinchiliklarni oldindan bilish va uni bartaraf etishga tayyor turish kerak.

Ta'kidlash lozimki, ofitserning o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni boshqaruv malakalarini rivojlantirishni talab etadi. Ofitser qaror qabul qilish haqida faqat tilda emas, balki amalda ma'lum bir o'quv va jangovar vazifalarni mustaqil ravishda bajarishi kerak. Ko'pincha bo'linma faoliyatining muvaffaqiyati komandirning kasbiy bilim va ko'nikmalarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Masalan, artilleriya batareyasining yopiq o't ochish pozitsiyasidan o't ochishi ahamiyatli darajada uning shaxsiy tarkibi harakatlarining kelishilganligi bilan shartlanadi: hisob raqami, aloqachilar, haydovchilar. Artilleriya bo'linmasining barcha shaxsiy tarkibi harakatlarining so'nggi natijasi aniq matematik hisoblar asosida o't ochishni amalga oshiradigan batareya komandirining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq.

Ofitser kasbiy faoliyati uchun shaxsiy tarkibning ta'limi va tarbiyasi ham ahamiyatlidir. Yosh yigit muddatli harbiy xizmatga yoki shartnoma asosida harbiy xizmatga kelganda nafaqat o'zi uchun yangi ijtimoiy sharoitda bo'ladi, balki ahamiyatli bo'lgan ma'lumotni egallash zaruratiga duch keladi, bunda bu ma'lumotni sifatli egallash harbiy xizmatchining kelgusidagi kasbiy faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Harbiy xizmatchilar ta'limi uchun bo'linma komandiri javobgardir, shuning uchun komandir nafaqat pedagogik bilimlarni, balki psixologik malakalarni ham egallagan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, ofitserning harbiy-kasbiy faoliyati nihoyatda ko'p qirrali va ko'p jihatlidir, bu esa uning kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy sifatleri shakllanishiga qat'iy talablar qo'yadi.

Shoira MIRABDULLAYEVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
Harbiy psixologiya va pedagogika
kafedrasini dotsenti

Sherdil uchuvchi edi



Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani Sohikkor ko'chasida bir xonadon bor. Unda xalqimizning mard o'g'loni marhum katta leytenant Shermuhammad Ashirov yashagan. 1975-yil 23-yanvar kuni ziyoli oilada tug'ilgan qahramonimiz halol, to'g'riso'z va jasur bo'lib ulg'aydi.

1999-yili u bolaligidan beri o'qishni orzu qilgan Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini bitirib, harbiy uchuvchi mutaxassisligini egalladi.

2000-yilning avgust oyida Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida bir guruh g'alamislarga qarshi to'qnashuvlar kun-u tun davom etar edi. Vatanimizga suqilib kirgan xalqaro terrorchi jangari to'dalarga qarshi kurashda dushman joylashgan bazalarni qidirib topish va havodan turib yakson qilish bo'yicha jangovar vazifani bajarishda Shermuhammad ham faol ishtirok etdi.

Katta leytenant Sh. Ashirov uchuvchi-shurman



tarkibida bo'lgan vertolyot ekipajiga navbatdagi jangovar topshiriq berildi. Mamlakat mustaqilligi va el tinchligini saqlashni muqaddas burch deb bilgan o'g'lon bu topshiriqni bajarishga jiddiy kirishdi. "Mi-8" rusumidagi jangovar vertolyot ekipaji tog'li hududning qiyin sharoitida jangarilar guruhini aniqlab, yovga katta talafot yetkazdi. Lekin jangarilar tomonidan otilgan avtomat o'qi vertolyotning o'ng dvigateliga jiddiy shikast yetkazdi.

Vertolyot tog'ga qulay boshlaydi. Vaziyatni tushungan Shermuhammad darhol quroldoshlariga vertolyotdan parashyut bilan

sakrashlarini aytadi. Ungacha vertolyotni boshqarib, o'zi eng oxirida sakrashini ma'lum qiladi. Pastda dushman hujumi tinmaydi. Harbiylar sakraguncha vertolyot tog' qoyasiga yaqinlashib qoladi. Shermuhammad eng oxirida qolgan texnik xodimga ham sakrashini aytadi. Quroldoshlarining barchasi sakrab bo'lganiga ishonch hosil qilgan dovyurak uchuvchi o'rnidan turmoqchi bo'lganida, oyoqlari g'animg otgan o'qlar tufayli vertolyotning qaysidir qismida qisilib, kabinada qolib ketadi...

Boshqaruvni yo'qotgan vertolyotni yerga qo'ndirish vaqtida sherdil o'zbek lochini qahramonlarcha halok bo'ldi. Qutqaruvchilar yetib kelganida vertolyot qoyaga urilib, jarlikka qulagan edi. Tinchlikni ta'minlash, barqarorlik va jamoat tartibini mustahkamlash borasidagi xizmat burchini bajarish chog'ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko'rsatgani uchun u Prezident farmoniga muvofiq, II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan mukofotlandi.

Umri qisqa bo'lsa-da, turmush o'rtog'i bilan baxtli hayot kechirdi. Otasining diydoriga to'ya olmagan qizalog'i Mahmuda o'sha paytda bir yarim yoshda edi. Undan yolg'iz yodgor bo'lib qolgan qizi otasiga quyib qo'ygandek o'xshaydi.

Shermuhammad Ashirovga oid yorqin xotiralarni uning yaqinlaridan eshitish.

ONA

Turmush o'rtog'idan erta ayrilgan Munisxon Ashirova ikki o'g'lini alpqomat, sherdil qilib voyaga yetkazdi. Uch qizi ham munosib tarbiya topdi. Onaxon farzandlarini doim duo qiladi. Shermuhammad bilan bog'liq voqealarni tez-tez eslaydi:

– Kenjatoyimning yurishiga ham, kiyinishiga ham hamma havas qilar edi. U bolaligida harbiy uchuvchi libosini kiyib, suratga tushgan. Nuridiydam yuragida uchuvchi bo'lish istagi ana shunda paydo bo'lgan. Rahmatli dadasi ham uchuvchi bo'lishni niyat qilgan. Shu bois bu yo'lda o'g'limga faqat yordam bergan.

Bir kuni hech uyqum kelmadi. Hamma uxlagan. Bir payt ko'zim ilingan ekan, "Shermuhammad!" deb baqirib yubordim. Nega? Nima uchun? Bilmayman. O'sha kuni o'g'limning joni uzilgan ekan, ertasiga bildim buni...

Vatanni himoya qilishdek sharafli ishiga juda mehr qo'ygan edi. Bir kuni ta'tilga kelganida, onaman-da, charchab, qiynalyapti, deb o'yladim. "Bolam, hadeb ish-ish, deyaverasanmi? Mazam yo'q, deb har zamon dam ol", desam, Sher o'g'lim: "Aya, menga hamma narsani o'rgatgansiz-u, faqat yolg'on gapirishdan dars bermagansiz", derdi. Ana shunday bir dunyo edi bolaginam.

O'g'limdan mingdan ming roziman, umri qisqa bo'lsa-da, chaqmoqdek yashadi, tinim neligini bilmadi. Haligacha do'stlari, safdosh o'rtoqlari kelib, yo'qlab turadi. Mendan yiroqda bo'lganida, qanday xizmat qilganini shular so'zlab beradi. Er yigit elning bolasi, tinchlik va osoyishtalikni shular saqlayapti-da.

Umida ASHIROVA, Shermuhammad Ashirovning ayoli:

– Turmush o'rtog'im vafot etganida 21 yoshda edim. Bir yarim yashar qizalog'im Mahmudani bag'rimga bosgancha yolg'iz qolganman. Murg'akkina chaqaloq qizim ham dadasiga qattiq mehr qo'ygan ekan. "Dada, dada", deya yig'lar, eshik tiq etsa, "dadam keldi", deya chopqillardi. O'sha kunlarni eslasam, yuragim o'rtanib, bo'g'zimga nimadir tiqilganday bo'laveradi...

Har narsaning davosi vaqt ekan. Yillar o'tib bormoqda. Ming shukrki, davlatimiz bizni yolg'izlatib qo'ymayapti. Vatani himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiylarning oila a'zolari doimiy e'tiborda. Yaratib berilayotgan sharoitlar sabab qizim Mahmuda 2018-yilda davlat granti asosida Toshkent davlat yuridik universitetiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi. O'qishni tamomlaganidan so'ng turmushga berdim. Bugun shiringina nevaram bor. Turmush o'rtog'im: "Mening qizim dunyodagi eng chiroyli va eng aqlli qiz bo'ladi, oyday baxt topadi", deya erkalardi. Bugun rahmatli otasining orzulari ushaldi. Qizimning baxtini ko'rib, nevaramning shodon qiyqirig'ini eshitib, bir suyunsam, sulolamiz davom etayotganidan ming karra shodlanaman.

O'QITUVCHI

Qahramonimiz maktabda boshlang'ich ta'limni birinchi muallimi Roza Abdiyevadan olgan.

– Maktabga ishga kelganimda ilk bor Shermuhammad o'qiyotgan sinfga rahbarlik qilganman, – deydi tajribali pedagog Roza Abdiyeva. – A'lochi o'quvchilarimdan edi. U bilan hamisha faxrlanaman. Og'ir, vazmin, mehribon o'quvchi sifatida bir nimani maqsad qilsa, shunga erishmasdan qo'ymasdi. Chinakam vatanparvar, yolg'on-yashiq so'z'larga toqat qilmas, bir so'zli yigit edi. Haqiqat uchun jon kuydirardi hamisha.

Nurli chehrasi hozir ham ko'z oldimda turibdi, to'rtinchi partada o'tirardi. Bir kuni "Qani, bolalar, his-hayajon gapga kim misol keltiradi?" desam, u qo'l ko'tarib javob berdi. "Yashasin, 8-mart va onajonlarimiz!" dedi baralla. Hamma kulib, qarsak chalib yubordi.

Shermuhammad haqida tarix fani o'qituvchisi Muhabbat TURG'UNBOYEVA shunday deydi:

– Dars vaqtida sarkardalar, ayniqsa mo'g'ullarga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi haqida ko'p savol berardi. Maktabni bitirayotganda, qaysi kasbni egallashi to'g'risida so'raganimizda, ulug'larimiz kabi yurtimizni ko'z qorachig'idek asrab, harbiy uchuvchi bo'laman, go'zal Vatanimizni osmon uzra ko'rsam, derdi hayajon bilan. Bunday yigitlar kamdan kam tug'iladi, menimcha. Kursantlik paytida tashakkurnomalar olganini eshitganimizda biz ham ko'p quvonganmiz. Maktabimiz uning nomi bilan ataladi. Shermuhammad har doim, har on yodimizda.

SABOQDOSH

– U bilan bir partada o'tirar edim, – deydi Shermuhammad Ashirovning sinfdoshi Mukarram Yusupova. – Ona tili va adabiyoti, tarix va geografiya fanlariga juda qiziqar edi. Sinfdoshlarimiz biror nimani tushunmasa, birinchilardan bo'lib yordam berardi. Bilmagan narsasi yo'q edi uning. Biz uni ismi bilan emas, "Polvon" deb chaqirardik. Chunki o'qishda ham, jamoat ishlarida ham, sinfdosh qizlarni himoya qilishda ham polvon edi-da. Kursantlik davrida, keyin harbiy xizmatni o'tayotganda, ta'tilga kelganida ham, albatta, bizni, sinfdoshlarni to'plardi. Do'stlarimiz orasida mustahkam oqibat rishtasini bog'lagan edi.

Sherali CHORIYEV kursdoshini shunday xotirlaydi:


– Xushchaqchaq, do'stlariga yordam qo'lini cho'zadigan, bilimga chanqoq, chin ma'nodagi vatanparvar bu kursdoshimning insoniy fazilatlarini, yuksak bilimi va tug'ma iste'dodini hozirgacha qadrlayman. Kursantligimizda qidirib topa olmagun kitoblarni undan olib o'qir edik. Uning shaxsiy kutubxonasida havo navigatsiyasi, aerodinamika, uchish qoidalariga oid darsliklar bisyor edi. Erkin Vohidov, Pirmuqol Qodirov kabi shoir va yozuvchilarning kitoblari qo'lidan tushmas edi. Favqulodda iqtidori, vazminligi, tirishqoqligi bilan yo'riqchi ofitserlarning maqotvlariga ko'p bor sazovor bo'lgan.

Mahalladoshi Shamsiddin Usmonovning mulohazalari ham Shermuhammadning o'zidan yaxshi iz qoldirganini tasdiqlaydi:

– Qishlog'imizdan chiqqan birinchi harbiy uchuvchi Shermuhammad Ashirov mendan besh yosh kichik edi. Ammo uning fikrlash doirasi juda keng, mulohazali yigit edi. O'zidan kattalarni ham, kichiklarning ham hurmatini joyiga qo'yadigan shinavanda, so'zga chechan edi. Ziyoli oilaning farzandi bo'lganligi sabab kitob bilan juda yaxshi do'st edi. Rahmatli otasi Ergashali aka ham, bobosi Ashirali ota ham o'qituvchi, elning hurmatiga sazovor kishilardan bo'lgan. Oilaning to'ng'ichi bo'lgan Nurmuhhammad aka ham ko'p yillar o'qituvchilik qildi. Uning ham umri qisqa ekan, pandemiya paytida vafot etdi. Onasi Munis ayaga jabr bo'ldi, ikki o'g'lini ham tuproqqa qo'ydi. Ammo insonlar 100 yoshigacha qilishga ulgurmagun amallarni bajarishga ulgurishdi.

Ziyoli oilada voyaga yetib, tinch va osoyishta hayotimiz, mustaqilligimizni asrash yo'lida aziz jonini ayamagan bu o'g'lonimiz jasoratini hamisha yoshlarga o'rnak qilib ko'rsataman. Ha, bugungi zamon har birimizdan ogoh va sergak bo'lishni talab qilmoqda. Chunki O'zbekiston biz uchun har nedan aziz va mukarramdur.

Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV



Vaqt shiddatini har doim ham his qilmaymiz. Uni qandaydir lahza, voqea, hodisa yodimizga soladi. Ba'zan oq oralayotgan sochlarimiz, ba'zan yoshlarning da'volari... Ana shunday shiddatli vaqt oralig'ida salmoqli ijod qila olgan insonlar meni hayratga soladi. Ha, ijodkor bo'lganidan keyin bu tabiiy hol, deyishingiz mumkin. Ammo... men bilgan ko'plab ijodkorlarda Lev Tolstoyning sarvati kabi sarvat bo'lmagan. Ijara uylarida, xotini, bolalari, ro'zg'or deya atalgan tubi ko'rinmas tirikchilik tashvishlari, ishidan ortib, yana ijod qila bilish ham aslida matonat.

Ustozlar aytishicha, gazetachilik ishi ijod ilhomlarini yutib yuboradi. Sizni "domiga tortib ketadi". Xayolda g'oyalarini pishitib yurgan, sizni beorom qilgan ne bir asarlar dunyo yuzini ko'rmaydi. Biroq ijod uchun bular to'sqinlik qilmas ekan. Buni taniqli jurnalist, shoir, adib Abdusaid Ko'chimov ijodi misolida ko'rish mumkin.

Yozuvchining yigirmadan ziyod kitobi chop etilgan. "Baland tog'lar" qissasi, "Boychechak" hikoyasi asosida ko'p qismli badiiy filmlar yaratilgan. Bir qancha asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

"Sharq yulduzi" degan g'oyat qadri jurnalning 2016-yil 11-sonida adibning "Binafsha" hikoyasi e'lon qilingan. Shu nomdagi kitobi ham bor. "Sharq yulduzi" xizmat safarlarida eng yaxshi

hamroh bo'la oladi. O'zimdanda kelib chiqib aytyapman-da. Bir necha yillar avval "Afrosiyob" poyezdida uni "tanib qolishgan". Orqa tarafdagi o'rindiqlarda samarqandlik opalar o'tirgan edi. Yoshlari taxminan qirq besh-elliklar atrofida. Ularni shevasidan bildim. Joylashib o'tirganlaridan gurunglari qizidi. O'zaro gurunglashib, yon-atrofni nazorat qilishni ham unutishmabdi. Jurnalni o'qib bo'lib, yopganimdan meni savolga tutdilar:

– Qanday kitob o'qiyapsiz? (So'nggi yillarda ko'pdan menga bunday savol berilmadi. Afsus...)

– Bu kitob emas, jurnal, "Sharq yulduzi" jurnali.

– Vayyy, bu jurnal haliam chiqyaptimi? – astoydil ajablanib so'radi ayol va yonidagi sherigiga qarab, dedi: – Qanday talashib o'qir edik, esingizdami? Navbatdagi soni qachon chiqar ekan, deb intiq bo'lganlarimiz-chi? Bir varaqlab ko'rsam bo'ladimi?

– Marhamat! – bajonidil opaga jurnalni uzatdim. – Men o'qib bo'ldim, o'zingizga olib qo'ysangiz ham roziman.

– Rahmat, rahmat...

Qarang, men Abdusaid Ko'chimov asarlarini tavsiya qilyapman-ku, jurnalga chalg'ib ketibman. Xullas, "Binafsha" hikoyasini ilk marta "Sharq yulduzi" jurnalidan o'qigan edim. Boshlanishi... rostini aytсам, unchalik o'ziga tortmadi. Keyin o'yladim: "bu jurnalda yengil-yelpi narsalar e'lon qilinmaydi, muallif ham taniqli ijodkorlardan, yana bir ko'z yugurtiraman".

Hikoya qahramoni Binafsha ismli yolg'iz ayol. Yozuvchi shu ayol misolida jamiyatning ayrim qatlamlariga, toifalariga oyna tutgandek. Yosh va go'zal bo'lsangiz, ham yolg'iz bo'lsangiz, ko'zingiz, ko'nglingiz yuksaklarda bo'lsa, ayollik sha'niga gard tekkizmay, orzularingizga erishish mumkinmi?! Shunday "yaxshi odamlar"

ham uchraydi, yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshevning iborasi bilan aytganda, "o'zining yaxshiligini biladigan yaxshi odam"lar. Insonni anglash, tanish qiyin. Ba'zan oliyjanoblik pardasiga o'rangan qabihlik, nomardlik qarshisida ojiz qolasiz. Binafshaning hikoyasi uzun. Undan bir parcha keltiramiz. Nazarimda, shu parcha o'quvchiga ko'p narsalarni anglatadi.

O'qiyimiz: "Ayol tugul, unchamuncha erkakniyam tan olmaydigan, bo'lar-bo'lmasga gerdayavermasa ham, zimdan o'zini hammadan baland qo'yishga o'rganib qolgan odam, tabiatan ancha bosiq, vazmin bo'lishiga qaramay, hozir ochiqdan ochiq tan berib, Binafsha, mendan o'zib ketibsan, deyshdan arang tiyildi."

Tiyib bo'lmas sirlil bir istak olovday yondiraverdi Botirning jon-u jahonini. Ammo ayolning qiyofasida yana shunday go'zal bir ichki salobat ham mavjlanib turardiki, hayiqish, cho'chish, jur'atsizlik o'g'irlab qo'ygandek edi undagi yovvoyi junbishni.

Bir mahallar mensimaydigan, aytganini qildiradigan odam hozir xuddi serg'alva ummonda sherday pishqirib bir-birining ustiga bostirib kelayotgan ikkita qudratli to'lqin o'rtasiga tushib qolgan qayiqchaday ojiz sezar edi Binafshaning oldida o'zini..."

Adibning yana bir hikoyasi "Tubsiz quduq". Hikoya shunday boshlanadi: "Akang qarag'ay qishloqqa kayfiyati buzilib, ruhi ezilib, ming-ming pushaymonlar yeb qaytib keldi. Bo'lib o'tgan achchiq ichakday gaplarni hech kimga, hatto qo'rboshiga (tarixiy hikoya shekilli, qo'rboshi so'zi bor ekan) ham aytmadi. Aytсам, Toshkentga borib, tog'am bilan yulishib (qo'rboshilar urishardi, yulishmasdi-ku?) kelishdan qaytmaydi, deb o'yladi. Bo'lmasa, qo'rboshidan yashiradigan siri yo'q, hatto ulfatlar gurungidagi nozik-nozik hazil-huzullar ham ichida qolmaydi. Qo'rboshi ham aytmasa, jim qarab turadigan anoyilardan emas: ichidagini baliq ovlagandek bitta-bittalab sug'urib olmaguncha ko'ngli joyiga tushmaydi".

Qavs ichida hikoyani o'qiy boshlaganimda ichimdan kechgan o'ylar, muallifga tegishli emas. Qo'rboshi g'alatiroqmi? Bu o'ylarimga javob hikoyadagi bittagina gap bo'ldi: "Qo'rboshi – akang qarag'ayning necha yillik turmush o'rtog'i – Xosiyat".

"Tubsiz quduq" g'oyat o'zbekona hikoya. Chunki u biz haqimizda. Bizning hech voz kecholmaydigan orzu-havasimiz – to'y haqida. Bilmadim, bu hikoya qimmatli turkiy tillardan boshqa tillarga tarjima qilinsa, o'quvchiga anglayishli bo'larmikan? Jadidlarimiz zamonidan beri bu haqda gapirib kelinadi. Hatto Buxoro amirining ham bu borada maxsus farmoni chiqqan ekan. Yangi davrda ham buning oldini olishga harakatlar bo'ldi. 2020-yili pandemiya vaqtida bunga biroz amal qilindi ham. Ammo biroz vaqt o'tib, yana hammasi kimo'zarga boshlandi. Oti orzu-havas bo'lgan shunchalik yengib bo'lmas illatmi bu?

O'qiyimiz: "Shu mahal: "Ko'kka qara, osmon quduqqa o'xshaydi", degan bir sas quloqlari ostidan yelib o'tganday bo'ldi. Dumaloq ko'zlari qisilib, osmonga tikildi. "Quduqmish... – ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga nuqib aylantirdi, – sog'liq joyidami?"

"Bir etak bolang bor, yer tirnab topganlaringni shamolga sovurma,

– pichirladi yana o'sha sas. – Kelin-kuyovning do'st-yoriga ixchamgina bazm qilib, qolganini sandiqqa solib qo'y. Ro'zg'orning o'ttiz ikki og'zi bor, deydilar. Hali ko'p kerak bo'ladi".

Akang qarag'ayga xuddi tog'asi qo'lini vallamatlarcha yelkasiga qo'yib, tepasida turgandek tuyulib ketdi. "Qo'lingizni torting!" deganday yelkasini siltab, yon-veriga nigoh tashladi. Tog'asining o'g'itlari yodiga tushgan sayin tabiati tirriqlashdi. "O'zim ahmoq, o'zim eshakmiya! Bo'lmasa, borarmidim? Shuncha pand-nasihattan keyin yana artistdan gap ochamanmi? Battar bo'l. Endi ko'ngling joyiga tushgandir... – u chapanichasiga so'kindi. – Tog'aning fe'lini bilmasmiding! Bilarding." "Sen aytgan artistlarga ko'kidan kamida bir yarim-ikki ming berish kerak", "Puling ko'paygan bo'lsa, bolalarni o'qit, kelinni olib, sanatoriyga bor, dam ol", deb dars berarini yaxshi bilarding!"

To'ylar qachondan beri orzularimizning eng yuksagi bo'lib qoldi ekan?! Juda ko'p to'ylar isrofdan o'zga narsa emas. Ishimiz to'ylar bilan chegaralanmaydi. Bizni o'liklarga ham muhabbatimiz, mehrimiz ziyoda. Kattakatta sovuq ma'rakalar tugab ketganidan keyin ham, o'lgan insonning o'lgan kunida ham bir nechta o'nlab odamni chaqirib, dasturxon yozishimiz kerak. Tiriklar hali tirik, ularning tashvishi, ehtiyojlari to'xtab turaversin-chi, bir gap bo'lar...

Abdusaid Ko'chimovning hikoyalari ana shunday, kishini o'yga toldiradi, atrofingizga hushyorroq boqishga undaydi.

Adibning go'zal, sermazmun, o'qishli esselari ham bor. So'z latofatini bekam-u ko'st ko'rsatib bergan. Taniqli shifokor Jumanazar Beknazarovni yurtimizda tanimaydigan odam topilmasa kerak. U inson haqida ko'plab yozgan. Ammo Abdusaid Ko'chimovning "Bu dunyoda shunday yashasang..." essesi hammasidan mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu Qashqadaryo vohasining, uning aziz farzandi professor Jumanazar Beknazarovning so'zlarda aks etgan qiyofasidir.

"Shevalarni nega yaxshi ko'ramiz, degan savolga artist Afzal Rafiqov shunday degan edi: "Biz bolalikdan uni tinglab ulg'ayamiz, juda qadrdon so'zlar, ohanglar ongimizga joylanadi. Shu sabab undan uzoqlashib ketganimizda eshitib qolsak, sevinamiz, tinglagimiz keladi..."

Esseda bir nechta taniqli insonlarni ko'rasiz. Ammo men unchalik ham ahamiyatli bo'lmagan, professorsorni duo qilishga kelgan qariyaning gaplaridan parcha keltirishni lozim topdim.

O'qiyimiz: "...Nevaracham hali mayda – chuvachak, nekin birpasda kattarganini fahmlamay qolasan, qiz mardum bironing xasmi-ku, hozirdan salomatligiga alhayda qaramasang, erta bir kun pushaymonda kuyib qolish hech gapmas".

"Alhayda" (alohida) so'zini eshitmaganimga ming yillar bo'lgandi. Bu onamning shevasi, onamning so'zi, jon qadar qadri bir so'z! Zukko o'quvchi shevaga to'xtalganim sababini angladi, deb o'ylayman.

Adibning esselari, umuman, uning tili So'z oshiqclariga dars bo'lishga arziydi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,

Inobat IBROHIMOVA,
 «Vatanparvar»



JANGLAR TAQDIRIDAGI

MUHANDISLIK QO'SHINLARI

Tarix guvohki, urushlarning paydo bo'lishi qadim-qadimlarga, eramizdan avvalgi 4 ming yilliklar, ya'ni quddorlik davriga borib taqaladi. Muhandislik ta'minoti vazifalarini bajarishga dastavval qullar otryadlari, jangchilar jalb etilib, keyinchalik bu ish maxsus tayyorlangan jamoalar (sapyorlar fransuzcha "sapeur" – sapa qazish, yero'sti ishlarini olib borish ma'nosini anglatadi) zimmasiga yuklatilgan. Bu nom bilan atash XVII asrdan boshlab Yevropa davlatlari armiyalarida namoyon bo'lgan. 1678-yilda Fransiya sapyorlar alohida maxsus bo'linma sifatida faoliyat yuritishni boshlagan.

Qadimiy Sharqda turli harbiy-muhandislik ishlari rivojlana boshlaganidan so'ng bosib olingan yerlarni mustahkam egallab olish va himoya qilish maqsadida qo'shinlar joylashgan hudud va rayonlarda ko'plab qal'alar qurilgan. Bu devorlar to'siq, ya'ni zich qo'qilgan yog'ochlardan iborat inshootlardan iborat bo'lgan. Sharq davlatlarida yog'och ustunlar ikki yoki uch qatorda bir-biriga yaqin tarzda qoqilib, ko'p hollarda qatorlar orasidagi bo'shliqlar tuproq bilan to'ldirilgan. Vaqt o'tgan sari bu usullar takomillashib, yog'och ustunlar o'rniga toshlardan qalin va baland qilib devorlar qurish va ularning tashqi tomonidan chuqurliklar (rovlar) qazila boshlangan.

Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Qadimiy Xitoyning shimoli-g'arbiy chegaralarini ko'chmanchi bosqinchilardan muhofaza qilish maqsadida mustahkam mudofaa chizig'i – Buyuk Xitoy devori barpo etilgan. Devorning umumiy uzunligi 4 000 km.ga teng bo'lib, har 60–100 metrda kuzatuv minoralari barpo etilgan. Devorning balandligi 10 metrga teng bo'lib, uning ustida qo'shinlar, otliqlar harakatlanishi mumkin bo'lgan.

Eng qadimiy mudofaa tarmoqlaridan biri sifatida Troyan vali deb ataluvchi qurilmani misol keltirishimiz mumkin. Bu val Karpat tog'lari va Qora dengiz

oralig'ida, Rim imperiyasi tomonidan barpo etilgan 4 ta valdan iborat bo'lib, hozirgi Moldaviya va Ruminiya davlatlari chegaralaridan o'tgan. Bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ossuriya qo'shinlarida (eramizdan avvalgi 1000-yillarda) maxsus yer qazuvchi otryadlar mavjud bo'lgan. Ular tomonidan yo'llar qurilar, ko'priklar tiklanib, qo'shin joylashgan joylarda qarorgohlar barpo etilar edi. Jang vaqtida ularning qamal qilingan shaharlar ostiga lahim qazishlari va devorlar sathida balandliklar barpo qilish bilan shug'ullanganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Dala mudofaa inshootlarining kelib chiqishi ham qadimiy davrlarga borib taqaladi. Qadimiy Sharq, Gretsiya, Rim, Karfagen va boshqa davlatlar qo'shinlarining asosiy dala inshootlari formasi bu mustahkam lager hisoblanar edi. Qo'shin joylashish hududlari har tomonlama mudofaa inshootlari, qo'rg'onlar, transheyalar, chuqurlar, tuproq va yog'och materiallardan tayyorlangan to'siqlar bilan o'rab olingan.

Eramizdan avvalgi V asrda forslar bilan skiflar orasida bo'lgan jangda Bosfor va Dunay daryolarining quyilishida daryodan o'tish uchun ko'priklar qurilgani haqida manbalarda qayd etilgan. Spartaga qarshi bo'lgan jangda (eramizdan avvalgi 480-yilda) Dardanella daryosi quyilishida suzuvchi ko'priklar barpo etilib, 100 ming kishilik qo'shin uchun kechuv tashkillashtirilgan.

Yuliy Sezar davrida Rim armiyasida nafaqat suzuvchi, balki qoqilgan yog'och tayanchli ko'priklar ham barpo etilgan. Germaniyaga qarshi yurishda o'n kun ichida Reyn daryosidan o'tish uchun 600 metrli ko'priklar barpo etilgan.

Rim armiyasida harbiy-muhandislik ishlari bajaruvchi qo'shin o'tliq va piyoda qo'shinlar bilan bir qatorda alohida qo'shin turiga ajratilgan edi. Ularning tarkibi temirchilar, yog'och va teri ustalari hamda boshqa turli mutaxassislardan tashkil topgan edi.

Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur qo'shinida mustahkam qal'a va qo'rg'onlarni qamal qilishda, dushman kuchlariga qirg'in keltirishda samarali qurol hisoblangan, ichiga yonuvchi modda – neft solingan ko'zachalar, irg'ituvchi o't sochish quroli – ra'dning uzluksiz ishlab turishini ta'minlovchi maxsus to'pchilar – ra'dandozlar mavjud bo'lgan va ma'lum bir davrlarda ularning soni 10 ming kishiga yetgan. To'p-ra'd Amir Temur tomonidan birinchi marta 1379-yilda Urganchni qamal qilishda ishlatilgan.

Amir Temur qo'shini safida hozirgi muhandislik qo'shinlari vazifalariga o'xshash ishlarni bajaruvchi bo'linmalar va mutaxassislar bo'lgan. Bu bo'linmalarda katapultalar, suyuq yonuvchi moddalarni uloqtiruvchi qurilmalar, daryolar ustida ponton-ko'priklar tashkil qiluvchi, qal'a devorlari ostiga lahim (yero'sti yo'li) qazuvchi va porox yordamida devorlarni portlatuvchi mutaxassislar bo'lgan.

Amir Temur 1370-yilda hokimiyatni qo'lga olgandan so'ng davlatni tashqi dushmanlardan himoya qilish maqsadida mo'g'ullarning "Yaso" an'alaridan voz kechib, yirik shahar markazlarini mustahkamlash hamda mamlakat chegaralarida asosiy tayanch punktlari bo'lib xizmat qiluvchi shahar istehkomlari tizimini yaratish maqsadini o'z oldiga qo'yib, uni amalga oshirishga kirishadi.

Bunda mamlakat poytaxti qilib tanlangan Samarqandga alohida e'tibor berilib, shahar atrofida mustahkam asosga ega bo'lgan monumental devor barpo etilgan. Samarqand qo'rg'on devorini barpo etish bilan bir paytda Amir Temur tomonidan shaharning g'arbiy qismida 34 gektar maydonni egallagan ark bunyod etilgan. Arkning devorlari va minoralari devor buzuvchi qurilmalar hujumiga dosh beradigan darajada mustahkam qurilgan. Devor qalinligi 4,5 metr, balandligi 12 metrdan ortiq bo'lgan va chuqur jar bilan o'ralgan. Arkning ichida suv manbayi joylashgan bo'lib, undan suv maxsus yero'sti sopol quvurlari orqali Bo'stonsaroyga tortib borilgan. Arkda Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy va ushbu saroylarga xizmat ko'rsatuvchi hammomlar, hovuzlar va omborlardan iborat yordamchi inshootlar majmuasi hamda xazina joylashgan. Bundan tashqari, bu yerda askarlar uchun yotoqlar va qo'rxona mavjud bo'lgan. Mazkur qo'rxonada Amir Temur tomonidan turli mamlakatlardan olib kelingan qurolsoz ustalar (asirlar) qo'shin uchun qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan shug'ullangan.

Pyotr I davriga kelib, ayniqsa shvedlarga qarshi kurashda harbiy-muhandislik san'ati yanada rivojlangani ko'zga tashlanadi. Hukmdor tomonidan yaratilgan Grodnen mustahkam lageri o'sha paytda dala istehkomining yuksak namunasi hisoblanib, bu istehkom tufayli shvedlar lagerga ochiq kuch bilan hujum qilishdan voz kechganlar. O'sha davrda Pyotr I tomonidan Poltava jangida qo'llanilgan ryedutlar (atrofi tuproqdan ko'tarilgan baland istehkom) tizimi ham ommalashdi. U nafaqat rus qo'shinlarining barqaror mudofaasini ta'minladi, balki shved armiyasini ham tor-mor keltirdi. Shuningdek, hukmdor loyihasi bo'yicha qurilgan Kronshtadt qal'asi ham rus harbiy-muhandislik san'atida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qal'a yadro va bir necha uzoqlikda joylashgan alohida frontlardan iborat edi. G'arbiy Yevropada esa bunday qal'alar bir necha o'n yildan so'ng qurila boshlangan. Pyotr I boshchiligida Rossiyada texnikaviy adabiyotlar nashr etila boshlandi va muhandislik ishlari bo'yicha bir necha rasmiy nashriyotlar paydo bo'ldi. 1716-yil 30-martda Pyotr I muhandislar va minachilarning vazifasi, armiyadagi o'rni va muhandislik mansabi unvonlari belgilangan "Reglament"ni

tasdiqladi. Unda inshootlar qurish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar belgilandi. Bundan tashqari, unda daryo, botqoqlarni yengib o'tish uchun qo'shinlar g'o'la, taxta, pontonlarga ega bo'lishi kerak deb ta'kidlangan. Dala qo'shinlari ofitserlari ham "muhandislik"ka o'rgatildi. Pyotr I muhandis qo'shinlarning paydo bo'lishini yuridik jihatdan rasmiylashtirdi.

XVIII asrning birinchi choragi oxirida Rossiyada harbiy-muhandis mutaxassislarni tayyorlash tizimi vujudga keldi va bu G'arbiy Yevropa armiyalarida ham harbiy-muhandislarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. 1812-yilda bo'lib o'tgan urush ham harbiy-muhandislik san'ati yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatdi.

Birinchi jahon urushida harbiy-muhandislik san'atining rivojlanishi urushni olib boruvchi davlatlarni asosan pozitsion formasidan foydalanishi bilan bog'liq. Bu davrda birinchi bo'lib piyodalarga va tanklarga qarshi minalar ishlab chiqildi va qo'llanildi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida harbiy-muhandislik san'ati rivojlanishining o'ziga xos yutuqi chegara hududlarda himoya tizimi yaratilishida yaqqol namoyon bo'ldi.

So'nggi yillarda nafaqat dunyodagi geosiyosiy va harbiy-strategik vaziyatda, balki zamonaviy urushlarning mohiyatida, qurolli to'qnashuvlarda texnika vositalaridan foydalanishning shakllari va usullari haqidagi qarashlarda ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi o'z Qurolli Kuchlarini qayta tashkil etish jarayonini tubdan yangiladi, desak, adashmaymiz. Qo'shinlarning bo'linmalari yangi zamonaviy qurol-aslaha va vositalar bilan ta'minlandi, davlatning harbiy Mudofaa doktrinasi qaytadan ishlab chiqildi va qabul qilindi. Shuningdek, boshqa bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari muhandislik qo'shinlari ham mustaqillik yillari davrida murakkab islohotlar davrini boshdan kechirdi va bugungi kunda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni yuqori darajada bajarib kelmoqda.

Podpolkovnik
S. ABDURAHMONOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
muhandislik ta'minoti sikli
katta o'qituvchisi



TUG'ILISH

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida bitilishicha, sohibqiron Amir Temur hijriy 790-yil, milodiy 1394-yilda (hozirgi Turkiya hududidagi) Mordin qal'asini zabt etib, beboshlar va yaxshilikni bilmaganlarga, zolimlarga o'z "mukofoti"ni berib, qahrini namoyon etishga chog'lanib turgan bir vaqtda Sultoniyadan Saroymulkxonimning elchisi xushxabar keltiradi. Shohruxning o'g'li Mirzo Ulug'bek dunyoga kelgan edi. Munajjimlar uning tug'ilishini sharaflil bir voqea deb bayon qiladilar. Bu xabardan kayfiyati chog' bo'lib, qahr-u g'azabi so'ngan Temur Allohning ne'matiga shukrona tarzida qo'rquv va tahlikada o'limini kutib turgan Mordin qal'asi aholisini afv etib, bo'ynilariga olgan to'lovdan ham voz kechadi. Go'yoki ko'kni egallagan qora bulut tarqab, dunyoga quyoshning zarrin nurlari tarala boshlaydi.

Tug'ilishidanoq ezguliklarga sababchi bo'lgan Mirzo Ulug'bek nafaqat turkiy xalqlarning, balki bashariyatning sharaflil va maqtovlarga loyiq bir shaxsi bo'lib ulg'aydi. Movarounnahrdan 40 yil hukmdorlik qilgan Ulug'bek, olim do'stimizning ta'biricha, Samarqandda o'ziga xos ilmlar akademiyasini tashkil etdi. Bu akademiyada "Zamona Aflotuni" mavlono Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid ibn Mas'ud Koshiy, mavlono Muiniddin, Shamsiddin Muhammad Xavofiy, mavlono Isomiddin, Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi singari o'z davrining ko'plab ilg'or olimlari samarali faoliyat olib borgan. Mirzo Ulug'bekning kamdan kam odamlarga nasib etuvchi buyuk iqtidori, tafakkuri, ulug' fazilatlarini tufayli Samarqandda riyoziyot, falakiyot va boshqa fanlarda olamshumul kashfiyotlar qilindi.

OTAGA BITILGAN MAKTUB

Ulug'bekning zamondoshlari va o'rta asrlar tarixchilari, sayyohlar yozib qoldirgan asarlar orasida bir maktub borki, u temuriy shahzoda shaxsini ko'z o'ngingizda to'liq namoyon qiladi. Uni Ulug'bek maktabining yetakchi olimi, riyoziyot va falakiyot ilmining buyuk allomasi Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosiddin al-Koshiy Koshonda yashayotgan otasiga bitgandi.

1421-yili fors tilida yozilgan bu maktub O'zbekistonda 1996-yili tarixchi olim Dilorom Yusupova tomonidan tarjima qilinib, nashr etilgan. Unda

Maktub

Mirzo Ulug'bek akademiyasi, shaxsi va fazilatlarini haqida

Samarqand ilmiy jamoatchiligi va ular shug'ullanayotgan ilmlar, nazariya va amaliyotning uyg'unligi, fan muammolari bo'yicha bahs-munozaralar, ayniqsa Ulug'bekning fazilatlarini muhabbat bilan ta'riflanadi. Samarqandda barcha fanlardan dars beruvchi eng mashhur olimlar va juda ko'p mudarrislar to'planganini qayd etadi.

YIGIT YOSHIDA DONISHMAND

Maktub yozilgan paytda Mirzo Ulug'bek 26-27 yoshlarda edi. Koshiy yozadi: "Ulug'bek donishmand kishidir. Haqiqat shuki, avvalo, u kishi Qur'oni karimning aksariyat qismini, uning tafsirlarini va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini yoddan biladi. U arab tilining sarf-u nahvini yaxshi biladi. Shu bilan birga, u qonunshunoslik (fiqh)dan yaxshi xabardor; mantiq, adabiyot uslublarini hamda musiqa nazariyasi asoslarini biladi".

Maktub yozuvchi Ulug'bekning riyoziyot va falakiyot bo'yicha bilimi va xotirasi beqiyos kuchli ekanligini e'tirof eta turib,



bir voqeani eslaydi. Kunlardan bir kuni Ulug'bek otda ketayotib, 818-yili rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil, 15-20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini topmoqchi bo'lib, xayoliy hisob bilan Quyosh taqvimini graduslar va daqiqalargacha yoddan hisoblab chiqadi va otdan tushgach, hisob to'g'riligini G'iyosiddin al-Koshiydan so'raydi. Xayoliy hisob juda aniq va to'g'ri ekanligiga iqror bo'lgan G'iyosiddin: "Bunday hisoblar zamondoshlarimdan hech biriga ato etilmagan va hech kim buni qilishi mumkin emas", deydi.

KUCHLI XOTIRA HAQIDA

Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida Mirzo Ulug'bekning kuchli xotirasi haqida ushbu voqeani bayon etadi.

Mirzo Ulug'bekning farosati hamda xotirasining quvvati shu darajada ediki, ov paytida biror jonivorga o'q otib, ov qilgudek bo'lsa, vaqtini eslab qolar, voqea qaysi kuni, qayerda sodir bo'lgani, qaysi jonivorlar ovlanganini daftarga bitib qo'yar edi. Tasodifan o'sha daftar g'oyib bo'ldi, qancha qidirsalar ham, uni topa olmadilar. Daftarni saqlovchilar sarosimaga tushib qolganda, podshoh dedi:

– Tashvish tortmang. Men daftarga yozilganlarni boshdan oyoq yod bilaman.

Shundan keyin Ulug'bek kotiblarni chaqirib aytib turdi, ular yozib oldilar. Yangi daftar to'lgan ham ediki, eskisi topilib qoldi. Har ikkala daftarni solishtirib, to'rt-besh ixtilofdan boshqa farq topmadilar. Ul hazratning iste'dodi va o'tkir zehni haqidagi naqlar juda ko'p.

SAFSATA SOTUVCHILAR SAMARQANDGA KELSIN

Yana maktubga qaytamiz. G'iyosiddin al-Koshiy Samarqanddek dabdabali shaharda olim, mutafakkir va bilimga tashnalariga ehtiromlar ko'rsatuvchi hukmdor huzurida allomalar orasiga tushib qolgani uchun "Oллоh va uning marhamatlariga shukurlar" aytadi.

Olim maktubida mavlono Badriddin ismli bir kishini hamda o'zlarining hali takomillashmagan bilimlari bilan maqtanib yurgan shaxslarni qoralaydi. Falakiyot sohasida yuzaki bilimga ega bo'lgan, gap sotib yurgan kishilar Samarqandga kelib, riyoziyotdan bahslar olib borilayotgan majlislarda qatnashsalar edi, zodagonlar va fuqarolarga ular safsatalarining foydasizligi ma'lum bo'lgan bo'lur edi, deb yozg'iradi.

Ulug'bek ham o'n-o'n ikki yillardan beri falakiyot bilan shug'ullanayotgan oltmish-

yetmishga yaqin olimlar qatorida edi. Majlislarda hukmdor emas, ilm talabgori sifatida qatnashar, barchani yechilishi zarur bo'lgan masalalar bo'yicha fikr va xulosalarini ochiq-oydin aytishga undardi.

Agar xato aniqlansa, Ulug'bek uni kim aniqlaganidan qat'i nazar, shak-shubhasiz, qabul qilar edi. Bu uning g'oyat oliyhimmattli va axloqli, rahmdil va marhamattli inson ekanligidan edi.

"BILIMSIZLIGIMNI FOSH QILMANG..."

Vaqtivaqti bilan Ulug'bek va talabalar o'rtasida shunday tortishuvlar kelib chiqardiki, uni tasvirlab bo'lmaydi, deb yozadi Koshiy otasiga. U hatto ilmiy masala to'la hal bo'lmaganicha bitimga kelmaslikni va hamma narsa butunlay ravshan degan xulosaga kelmaslikni buyurardi. Ba'zan birov oliy hazratga nisbatan hurmat yuzasidan takliflarini ma'qullasa, u norozi bo'lib, "Mening bilimsizligimni fosh qilmang", der edi. Ulug'bek ba'zida sinov uchun mulohazaga g'irt noto'g'ri masalani qo'yardi. Biron kishi hurmat yuzasidan uning fikrlariga qo'shilgan zahoti ushbu masalani bahsga takroran qo'yib, u kishini bilimsizlikda ayblab, sharmanda qilardi.

ULUG'BEK AKADEMIYASI

G'iyosiddin al-Koshiy maktubida bitgan ma'lumot va hodisalar Ulug'bek Samarqandda bugungi oliy ilm dargohlaridan qolishmaydigan, aksincha o'z davri nuqtayi nazariga ko'ra, ulardan ancha baland mavqedagi akademiya barpo etganini dalillar bilan isbot etadi. Bu tom ma'nodagi akademiyada Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" va boshqa asarlari, dunyoning mashhur va donish allomalari yozgan kitoblar asosiy darsliklar edi. Maktubda rasadxona va uning devoriga o'rnatilgan quyosh soati, astronomik asbob-uskunalarining yasalishi va boshqa muhim ma'lumotlar borki, bular bizning davrimizgacha kelgan ko'pgina taxminlarni tasdiqlaydi.

MISGAR USTA VA 500 TUMANGA YAQIN PISHIQ G'ISHT

Rasadxona qurilishida faol qatnashgan al-Koshiy maktubning bir o'rnida "barcha zodagonlar, mansabdorlar, fan arboblari va faollari ustalarining yer yuzasini tekislash uchun tayyorlagan asboblari atrofida yig'ilishdi", deb yana bir joyida Ibrohim ismli misgar usta haqida gapirib, unga "bir armillyar sferani yasab tugatish buyurilgan"ini yozadi va "misgarlikda Ibrohim ustodning bilimini quyidagi misolda shunday ta'riflash mumkin. Bandayi bechora (ya'ni G'iyosiddin) qutbning o'rnini aniqlash uchun bir halqaning botiq, ikkinchisi esa qavariq tomonlarida ikki nuqtani belgilab, ularning atroflarida uncha katta bo'lmagan doiralarda chizib qo'yganda, bu parmani halqaning bir tomoniga o'rnatib, uning o'ng tomonida belgilangan nuqtada teshik ochdi. U har bir halqada shunday teshiklardan o'ntasini, birontasida ham nuqson topilmaydigan qilib ochdi. Halqalarning bir-biriga mos kelishining aniqligi haqida hech qanday izohning hojati yo'q", deydi.

Rasadxona qurilishini Ulug'bekning shaxsan o'zi boshqarib, unda o'zi ishlaganini e'tirof etarkan, otasiga "bu yerda xodimlar ko'p emasligidan aslo xavf yo'q"ligini va "Ptolemey ham o'zi podshoh bo'la turib, bir o'zi kuzatishlar bilan shug'ullangan"ini aytadi. "Hozir rasadxonaning asosiy qismi tugallangan. Qurilish ishlariga 500 tumanga yaqin pishiq g'isht va ganch sarf qilinib, bitta armillyar sferani tugatishdi. Yana boshqa birini qurish ustida ish olib borilmoqda. Ba'zi



boshqa asboblarning qurilishining yarmi bajarilgan. Azimutal kvadranti, dioptriya asbobi va boshqa asboblarning qurilishi tugallanmoqda”.

1 018 TA YULDUZ JADVALI

27 yoshli Ulug'bekning texnika taraqqiy etishiga, optik asboblarning ixtiro qilinishiga necha yuz yillik muddat bo'lishiga qaramay, astronomik asbob-uskuna va qurilmalarni yasatib, Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlarni katta aniqlik bilan o'rgangani har qancha hayrat va tahsinga loyiq. 1 018 ta yulduzning jadvali berilgan “Ziji Ko'ragoniy”da ekliptika va ekvator orasidagi burchakni aniqlash, osmon jismlarining koordinatalarini topish usullari, meridian chizig'ini o'tkazish, qibla azimutini aniqlash, geografik koordinatalarni topish, yil davomiyligini aniqlash va osmon sferasida differensial o'lchashlar o'tkazish masalalari yoritilgan. Bu asar yulduzlar soni va kuzatishlarning originalligi jihatidan astronomiya tarixida Gipparx – Ptolemey jadvalidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

TASHQARIDAGI E'TIROF

Shu o'rinda esga olish kerakki, ko'hna Turonda ilm va davlat boshqaruvi tanazzulga yuz tuta boshlagan davrlar, ya'ni XVII asrning ikkinchi yarmida polyak astronomi Yan Geveliy 1690-yili chop etilgan “Yulduzlar osmonining atlasida”da Mirzo Ulug'bekni o'sha davrning mashhur astronomlari qatorida tasvir etadi. Gravyurada Ulug'bek falakiyot ilmi ilohasi Uraniyaning o'ng tomonida tasvirlangan. Yana bir muhim e'tirof yana shu Yan Geveliy 1647-yili nashr qilingan “Selenografiya” kitobida Oydagi kraterlardan biriga Mirzo Ulug'bek nomini beradi.

MUQADDIMADAGI SO'NGGI SO'Z

Qozizoda Rumiyning maslahati bilan 1416-yilda Hirotdan Samarqandga ko'chirilgan G'iyosiddin al-Koshiy taxminan 1429-yilda vafot etadi. Dilorom Yusupovanning yozishicha, salkam 15 yil Samarqandda faoliyat yuritgan Koshiy arab tilini mukammal bilgan va Ulug'bek “Zij”ining muqaddimasini arabchaga ag'dargan. Bu haqda muqaddima so'ngida shunday deyiladi: “Mavlono sulton Ulug'bek ibn Sulton Shohrux ibn Sulton Temur Ko'ragonning “Zij”i tugatildi. U buni Samarqandda kuzatgan. Arabchaga mavlono va allomalar shayxi, alloma Sayyid G'iyosuddin Jamshid ag'dardi”.

MAKTUB QUIYIDAGI GAPLAR BILAN YAKUNLANADI

“Eslatib o'tilgan asbobni qurish tugashi bilan uni rasadxonaga olib keldilar...”

Rasadxona qurilishi maydonida boshqa olimlar ham hozir bo'lib, foydali ishlarni bajarar edilar. Hozircha jiddiy ishlarning vaqti yetib kelmadi, chunki hali ham rasadxona binosining qurilishi davom etmoqda. Qurilishni tugatishlari va asboblarni o'rnatishlari bilan osmon jismlarini dioptrlar yordamida bir necha kuzatuvlar olib boriladi. O'lchamlar aniqlanadi, so'ng ushbu kuzatuvlar asosida orbitalar eksentrisitetlarini, episikllar radiuslarini, ekliptika og'ishini, [orbitalar] eksentrisitet markazlarining o'rta masofalarini va shu kabilarni aniqlash lozim bo'ladi.

Shundagina ishlar boshlanadi. Gapni bundan ortiq cho'zishning hojati yo'q. Sizning soyangiz abadiy bo'lsin. Bandalaringizning eng haqiri va kamtarini G'iyos”.

G'iyosiddin al-Koshiyning mazkur maktubi otasiga yozilgan shaxsiy bir xat bo'lsa-da, u bir mukammal asar darajasini da'vo qiladigan, Ulug'bek barpo etgan tom ma'nodagi akademiya faoliyat yuritgan olimlar, rasadxona qurilishi, unda qo'llanilgan astronomik asbob-uskunalar to'g'risida aniq ma'lumotlar beradigan qimmatli manbadir.

Furqat ERGASHEV

XOTIRA

MANGULIKKA DAXLDOR UMR

Insonga umr yashash uchun berilgan. Kimlardir hayotini tinch, huzur-halovatda o'tkazish uchun harakat qilsa, yana kimlardir o'zini hayotning to'fonli dengiziga urishga talpinadi – shunchaki yashashga ko'nikmaydi.



Insonga beriladigan birlamchi baho odamiylikdir. Umrini ma'rifatga, xalq ta'limi taraqqiyotiga baxshida etgan inson Do'stqobil Qodirov ana shunday bahoga loyiq edi. Machay qishlog'ida tug'ilgan Do'stqobilning otasi Qodir bobo kosib edi. U oddiy kosib emasdi, shuning uchun ham qishloq ahlining hurmatiga sazovor edi. Otasining fazilatlarini o'zida jamlagan Do'stqobil Termiz davlat pedagogika institutida o'qidi. Saboqdoshi dotsent Sharif Yoqubovning ta'riflashicha, “U talabalar orasida yagona edi”. Talaba D. Qodirovning ijaradagi uyida bo'lgan do'stlari javonidagi kitoblarini ko'rib hayratga tushardilar. Nahotki, bir talabada shuncha kitob bo'lsa?!

Yillar o'tib bir talabaning shaxsiy kutubxonasi Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani “Yangiobod” jamoa xo'jaligi markazidagi katta kutubxonaga aylandi. Uning ochilishida viloyatning o'sha paytdagi rahbarlari ham ishtirok etib, bu voqeani olqishlagan edilar.

Oliy ta'lim dargohini a'lo baholar bilan bitirgan Do'stqobil tumanning eng nufuzli Ibn Sino nomidagi maktabida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi vazifasida faoliyatini boshlagan edi. Ilmga, yangilikka chanqoq, tirishqoq yosh muallim tez orada katta shuhratga erishdi, tuman xalq ta'limi bo'limi vakillari “dars o'tishni, adabiyot kabinetini jihozlashni Do'stqobil Qodirovdan o'rganinglar”, deya boshqalarga o'mak qilib ko'rsata boshladilar. Bugungi kun tili bilan aytganda, u vazifasiga kreativ yondashuvchi, innovatsion g'oyalarga boy mutaxassis edi. Tuman osha viloyatga yoyilgan shuhratdan taltaymadi, aksincha o'ziga yaqinlashgan o'quvchi yoki muallim borki, ularga ham ilm dardini, kitobga, adabiyotga muhiblik fazilatini yuqtirdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi, uni maktab direktori vazifasiga tayinladilar. Bu vaqtda maktab tumanning eng oldi ta'lim maskanlari qatoriga qo'shildi. Xokisorlik deymizmi yo ilmdan boshqasi bekor, degan prinsipda yashagani uchunmi, D. Qodirov ko'p vaqt o'tmasdan, Muzrabot tumani xalq ta'limi bo'limi mudirining o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. D. Qodirov qayerda va qanday vazifalarda ishlamasin, o'zining bilimi, ishbilarmonligi, jamoa va o'z xodimlariga nisbatan odilona munosabati bilan hurmat-izzatga sazovor bo'ldi. Bor kuch-qudratini barkamol avlodning ta'lim-tarbiyasiga qaratdi. Albatta, mehnat va yaxshi faoliyat samarasiz ketmaydi. Shundan keyin D. Qodirov tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri, viloyat xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutining direktori, Muzrabot tumanidagi 10-ixtisoslashgan maktab direktori vazifalarida ham faoliyat yuritdi. Uning shogirdlari bugun mamlakatimizning turli hududlarida qaynoq jabhalarda faoliyat olib borayotgan taniqli kishilardir, ular o'zlarining erishgan yutuqlari uchun ustozidan doimo minnatdor bo'lib yurishadi.

Do'stqobil Qodirov bilan bir uchrashganimizda yozilishi kerak bo'lgan to'rtta kitob haqida gapirgan edi. Qisqa muddat ichida shu kitoblardan ikkitasi nashr etildi. Biri – “Ardog'imdagi odamlar”, ikkinchisi – “Ta'lim va tarbiya – komillik garovi” kitoblari. “Ardog'imdagi odamlar”da 100 dan ortiq taniqli va fidoyi olimlar, pedagoglar, tashkilotlar rahbarlari, huquqshunoslar, shoir-yozuvchilar hayoti, mehnat-faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, ikkinchisi mumtoz pedagogikaga xos asar bo'lib, tarbiya va ta'lim nazariyasiga aloqador noyob kitoblar sirasiga kiradi.

D. Qodirov ma'rifatning jonkuyar targ'ibotchisi va tashkilotchilaridan edi. Uning “Litseyda kichik akademiya”, “Tarbiyaviy ishlar – ta'limda yutuqlar garovi”, “Yangi ta'lim muassasalarida noan'anaviy darslar”, “Litseyga kiruvchilar uchun test sinovlari to'plami” kabi uslubiy qo'llanmalari, hamkorlikda yozilgan “Ilk qaldirg'ochlar parvozi” kabi kitoblari muallifning naqadar serqirra iste'dod egasi ekanligini namoyon etadi.

Darhaqiqat, D. Qodirov o'ta mulohazakor, yetti o'lchab bir kesuvchi inson edi, bu holat uning hayoti, oilasida ham yaqqol ko'zga tashlanardi. El-xalq orasida katta hurmatga ega bo'lishiga qaramay, kamtar, mehribon, mehmondo'st, ochiqqo'ngil inson edi. Turmush o'rtog'i Sharofat Halimova ingliz tili fani o'qituvchisi, 7 nafar farzandining hammasi oliy ma'lumotli. Katta o'g'li Umarali Qodirov fan doktori, professor, bugungi kunda otasi kabi ko'plab yosh tadqiqotchilarning ustozlari. Qizi Surayyo Qodirova filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish arafasida.

Hali u kishining orzu-istaklari ko'p edi. Orzu-istaklarki, o'zlarining kamiko'stlarini to'ldirish, boylik to'plash emas, balki xalq manfaatlarini uchun xizmat qilishga qaratilgan orzu-istaklar edi. Yana bir nechta kitob yozib, odamlar nazaridan chetda qolgan, el-u xalqqa, madaniyat-ma'rifatga xizmati singgan kishilarning faoliyatini yoritish, boshqalarni ham hayotda ana shunday faollikka undash u kishining muqaddas niyatlari edi.

Bekpo'lat UMURQULOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Dildan tilga ko'chgan quvonch

Hayotda har birimiz erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarimiz zamirida eng avvalo, muhtaram ustoz va murabbiylarning ulkan xizmatlari yotadi.

Shogirdlari qalbiga ilm-fan ziyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar sifatida tarbiyalayotgan bu zahmatkash va oliyanob kasb egalari har qancha tahsin-u e'tirofga munosib.

Mamlakatimizning chegaraoldi hududlarida o'sib kelayotgan yoshlarga bilim berib, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishlariga o'z hissasini qo'shayotgan, maktablarda tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublarida ertamiz egalarining ilk harbiy ko'nikmalari shakllanib, yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan ulg'ayishlariga erishayotgan fidoyi ustoz-murabbiylar ham hamisha Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Hozirda mamlakatimiz bo'ylab 456 ta umumta'lim maktabida "Yosh chegarachilar" klublari tashkil etilgan bo'lib, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan mazkur klublar ishtirokida har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining tuman va viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan 12 ta maktab jamoasiga "Minnatdorlik xatlari", 11 ta maktab direktori va murabbiylariga III darajali "DXX Chegara qo'shinlari a'lochisi" ko'krak nishoni, shuningdek

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanining 4-umumta'lim maktabida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klubi xonasiga 32 dyuymli televizor taqdim etildi. Sovg'alar bayram kunlarida o'z egalariga tantanali tarzda topshirildi.

Butun respublikamiz bo'ylab o'tkazilgan mazkur tadbirlar davomida dillardagi cheksiz quvonch va hayajon tillarga ko'chib, barcha ustoz-murabbiylar o'zlariga ko'rsatilgan katta e'tibor, e'tirof va rag'bat uchun Chegara qo'shinlari qo'mondonligiga chuqur minnatdorlik izhor etdilar.

– O'quvchilarimiz "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi shartlarini qunt bilan, barcha qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda bajarishga harakat qilishadi. Ularning shijoati-yu g'ayrati maqtovga munosib. Biz bu o'g'il-qizlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Aminmanki, maktab davridanoq yurt himoyasi nima ekani, harbiylikning sharafi va mas'uliyatini his qilayotgan o'g'il-qizlarimiz kelgusida albatta, haqiqiy vatanparvar farzandlar bo'lib kamolga yetishadi. Vatanimiz sarhadlarini ko'z qorachig'idek asrayotgan



chegarachilarimiz ham yoshlar tarbiyasi yo'lida biz bilan hamisha hamnafas va maslakdosh bo'lib kelayotganlari alohida e'tirofga sazovor. Bayram munosabati bilan maktabimizdagi "Yosh chegarachilar" klubi xonasiga 32 dyuymli televizorning sovg'a qilinishi ham klub a'zolarining cheksiz quvonchiga sabab bo'ldi, – deydi Nishon tumanidagi 4-umumta'lim maktabi direktori Nortoqi Mirzayeva.

Albatta, sharaflari va mashaqqatli kasb egalari bilan yo'lga qo'yilgan bunday samarali hamkorlik ularni yanada ruhlantirib, yangi-yangi marralar sari undashi shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



SOG'LOM TURMUSH

Muhimi ovqatlanishmi yoki to'g'ri ovqatlanish?

Atrof-muhit omillari inson organizmiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu ta'sirlarga ahamiyatli bo'lish organizmda patologik yoki fiziologik holatlarning to'g'ri ta'minlanishida o'ta muhimdir. Olimlar va mutaxassislar tomonidan inson organizmidagi fiziologik holatlarning me'yorida bo'lishi ilmiy jihatdan keng o'rganib kelingan. Shu o'rganishlar asosida sanitariya qoidalari va me'yorlari shaklida hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Masalan, odamning yoshi, fiziologik holati, mehnat faoliyati, yil fasllari, sarf etadigan energiyasi, yashash regionlari, tashqi muhit ta'sirlari va boshqalarga qarab to'g'ri ratsional ovqatlanish turlicha belgilanib, **kunlik ratsionda oqsil, yog', uglevod va vitaminlar me'yorlarining nisbati ko'rsatilgan.** Lekin ko'pincha to'g'ri ovqatlanishda odamlarning nasliy, mahalliy va milliy tomonlari ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Kuz mavsumi kelishi bilan havo harorati pasayadi, namlik biroz ko'tariladi, organizm uchun zarur vitaminlar va mikroelementlarga boy bo'lgan o'lkamizga xos sabzavot va mevalar tabiiy holda to'liq pishib yetiladi.



Shu bois kundalik ratsionda aynan shu sabzavot va mevalardagi organizmga zarur bo'lgan vitamin va mikroelementlar bilan tanada ularning zaxirasini ko'paytirib olishning imkoniyati paydo bo'ladi.

Xalqimizda erta bahorga yaqinlashish vaqtida "ilik uzildi" degan atama mavjud. Bu qish mavsumida organizmdagi vitamin va mikroelementlar zaxirasi **kuz mavsumida yetarlicha miqdorda to'planmagan bo'lsa, fiziologik holat o'zgarishi, hatto patologik holatlar rivojlanishiga** sabab bo'ladi.

Bulg'or qalampiri, achchiq qalampir, ochiq yerda o'sib yetilgan ko'katlar C vitaminiga, sabzi, karam, bodring va boshqalar zaruriy mikroelementlarga, mevalar va ayniqsa xurmo yod moddasiga boy hisoblanib, kuz mavsumida iste'mol qilish tavsiya etiladi. Misol uchun, **go'sht, tuxum, yog' miqdorini ratsiondan kamaytirib, oqsil, uglevod va yog'larga bo'lgan ehtiyojni aynan shunday sabzavot va mevalar hisobiga o'zlashtirish ijobiy natijalar beradi.** Dukkakli mahsulotlar no'xat, mosh, loviya organizmdagi oqsilga bo'lgan ehtiyojni bemaol qondira oladi. Yurtimizdagi shirindan-shakar mevalar uzum, olma, nok, anor kabilar nainki uglevodlarga bo'lgan

ehtiyojni, qolaversa mikroelement va vitaminlarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi.

Kuzda ob-havo sovishi sababli kundalik ovqatlanish jarayonida ko'proq issiqlik energiya manbasiga boy bo'lgan mahsulotlardan tayyorlangan ovqatlarni tanovul qilish lozim. Kunning tunga nisbati kamayib borishini ham inobatga olganda, kechki ovqatlarni sabzavot va mevalarga boyitgan holda, kechasi hazm bo'lishi qiyin ovqatlarni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi.

XX asrda yog'ga, ayniqsa hayvon yog'lariga ko'pincha salbiy fikrlar bildirilgan. Ovqatlanish gigiyenasi sohasida ilmiy darajaga ega bo'lgan olim **ilm uchun hozirgidek sharoit bo'lganda, ilmiy asarlarida "qo'y dumbasi"ning xalqimiz uchun ijobiy xususiyatlarini bemaol yoritgan bo'lishini ta'kidlab o'tgan.** Albatta, eng kamida haftasiga bir marotaba qo'chqor dumbasi yog'idan ratsionda bo'lishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Yuqoridagilar sog'lom odam uchun tavsiya etilmoqda. Aynan shuning uchun ham ratsionda yosh, jins, fiziologik holat, atrof muhit, yil fasli, kunlik energiya sarfi kabi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda gigiyenik me'yorlarga e'tibor berishni to'g'ri, deb hisoblaymiz.

A. SARIMSAKOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi mutaxassisi

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimida butun hayotini adolatni ta'minlashga, Vatan tinchligi, taraqqiyoti va huquq-tartibotni mustahkamlashga bag'ishlagan, hayot sinovlarini mardonavor yengib o'tish bilan birga respublikamiz shimoliy sarhadlarida harbiy sud faoliyatida o'ziga xos tajriba maktabini yaratgan insonlardan biri – 20 yil sud-huquq sohasining turli tizimlarida fidokorona xizmat qilgan, harbiy sud sohasining faxriysi Atanazar Yakubov Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug'ilgan.

ADOLAT PARVAR INSON EDI

Atanazar Yakubov 1978–1980-yillari Mongoliyada muddatli harbiy xizmatni o'tagan. Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetini tugatgach, 1983–1993-yillarda Toshkent shahri sudining sudyasi va bir qator tumanlarida turli lavozimlarda xizmatini olib bordi. 1993–1994-yillarda Xorazm viloyati sudi sudyasi lavozimida ishlagan.

Adliya katta leytenanti Atanazar Yakubov 1994-yildan Nukus garnizoni harbiy sudining raisi va 1999-yildan to 2004-yilgacha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy sudi raisi lavozimida faoliyat yuritdi. Atanazar Yakubov harbiy sudya sifatida xizmat qilib, o'z ishini puxta bilishi, tirishqoqligi, kasbiga mehr bilan yondashishi, xushmuomalaligi bois hamkasblari orasida obro'-e'tibor qozondi, el-yurt nazariga tushdi. Turmush o'rtog'i Sayyora Yakubova bilan 3 nafar farzandni kamolga yetkazdi.

Bu inson o'z ish faoliyati davrida yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom ruhida, adolatparvar, haqiqatsevar, bir so'z bilan aytganda, barkamol insonlar etib tarbiyalashga hissa qo'shish bilan birga, Qurolli Kuchlar tizimida jinoyatchilikning oldini olish va harbiy intizomni mustahkamlash, sud sohasiga malakali xodimlarni jalb etishda bor bilim, tajribasini ishga solib samarali xizmat qildi. Ko'plab shogirdlar tayyorladi.

Inson dunyoga kelar ekan, hayotda uzoq yashashi bilan emas, balki umri davomida amalga oshirgan ezgu va xayrli ishlari ila hurmat-e'tibor topadi. Afsuski, 2011-yil yanvar oyida ustozimizni surunkali kasallik oramizdan olib ketdi. Bugun tarixga nazar solib, ustozlarimizni eslash barchamiz uchun farz va qarzdor. Atanazar Yakubov haqiqiy ustoz nomiga sazovor bo'lgan, katta hayotiy tajribaga ega adolatli inson edi.

Mening eng katta yutug'im Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy sudida Atanazar Yakubovdek o'z ishini yaxshi biladigan, qattiqqo'l va professional, ayni paytda xushmuomala ustozga shogird tushib, sohaning qirralarini o'rganganimdir.

Sud xodimi sifatida ko'p yillar ishlab, keyin sudyalik lavozimiga tayinlangan bo'lsam-da, bu kasbning ustasi bo'lish, haqiqiy sudya bo'lib shakllanish uchun odam o'z ustida tinimsiz ishlashi va o'qib-o'rganishdan tashqari ustozlar o'giti, maslahati zarurligini his qildim. Ayniqsa, sud tizimida sudya sifatida shakllanishda ustozlarning o'rni, tajribasi beqiyosdir.

P. AKIMNIYAZOV,
Nukus harbiy sudining raisi

E'ZUZ

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va Toshkent harbiy sudi jamoasi uzoq yillar mobaynida sud tizimida xizmat qilgan, umrini shu sohaga bag'ishlagan samimiy inson, sud faxriysi, iste'fodagi adliya podpolkovnigi Abdusamad Po'latov xonadoniga tashrif buyurib, ustozning holidan xabar olishdi.

Sohaga baxshida umr



Abdusamad Po'latovning katta hayotga yo'llagan minglab shogirdlari bugungi kunda sud va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qilishmoqda va ustozning ajoyib fazilatlarini, pand-u nasihatlarini har doim yodlarida saqlagan holda o'z ish faoliyatlarida dasturulamal sifatida foydalanishmoqda.

Uchrashuvda Abdusamad Po'latov o'zining odil sudlov sohasidagi boy tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Yoshlarga pand-u nasihat qilib, inson qadrini ulug'lash, barcha islohotlar inson va uning manfaatlarini uchun xizmat qilishi lozimligini ta'kidlab, adolat yo'lida tolmay mehnat qilishga chorladi.

J. RAHMONOV,
Respublika Harbiy sudi raisi

UCHRASHUV

Bardavom an'ana

Ustoz – qanchadan qancha shogirdlarni kamolga yetkazgan, teran tafakkur, yuksak iste'dod va bilim, kamtarona fazilatlarga ega bo'lgan inson timsoli. Binobarin, bunday oliy nufuzga yetishguncha uzoq va mashaqqatli mehnat qilinadi.



Muayyan sohada ko'p yillar mehnat qilib, faxriy maqomiga erishgan fidoyilar, shu jumladan harbiy prokuratura organlari faxriylari ham ana shunday chinakam ustoz nomiga munosib insonlardir. Ularning boy tajribalarini o'rganish esa biz, hozirgi avlod vakillari, qolaversa, yoshlar uchun chinakam hayot maktabidir.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan "Ustoz-shogird" an'anasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ayniqsa Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda farmoni va 2023-yil 31-maydagi qarori bilan ushbu yo'nalishdagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Sohada o'tkazib kelinayotgan uch avlod uchrashuvlari bu jabhadagi tadbirlarning amaliy ko'rinishlaridan biridir. Bu faoliyatning mantiqiy davomi sifatida faxriylar Respublika Harbiy prokuraturasiga taklif etildi. Ochiq va samimiy muloqotda ular o'zlarining xizmat davridagi qiziqarli voqealarni esga olib, xayolan bir zum bo'lsa-da, o'sha kezlarga sayohat qilishdi. Ustozlarning o'z tajribalari asosida bildirib o'tgan xizmat

bilan bog'liq o'g'itlari yosh xodimlarga chinakam saboq vazifasini o'tadi.

Bir so'z bilan aytganda, uchrashuv ishtirokchilarga sohaga oid yaqin o'tmishning hayotiy vakillaridan amaliy ko'nikmalarni o'rganish, oldingi va hozirgi davr imkoniyatlari hamda shart-sharoitlarini taqqoslash, yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar samarasini yana bir bor chuqur his etish imkoniyatini yaratdi. Barchaning qalbida vatanparvarlik, inson qadri ulug'langan bugungi kunga shukronalik tuyg'ulari jo'sh urdi.

Suhbat yakunida faxriylarga esdalik sovg'alari taqdim etildi. So'ngra uch avlod vakillari "Yangi O'zbekiston" bog'iga va O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga tashrif buyurishdi. Samimiy muloqot "bir piyola choy ustida"gi qizg'in suhbatlarga ulanib ketdi.

Adliya polkovnigi Sherzod XAYITOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturaning katta yordamchisi

KORRUPSIYANING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SABABLARI

Ma'lumki, jamiyatdagi jinoyi xatti-harakatlarning ko'payishi odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularning huquqiy ongi buzilishiga olib keladi. Unga bir-birini istisno etuvchi ikki tamoyil, huquqqa nisbatan ijobiy va salbiy munosabatning murakkab birlashuvi xosdir.

Ayni bir subyektlar ongida bunday tamoyillarning mavjudligi aholi turli guruhlarida qadriyatlar tarkibi bo'linib ketganidan dalolat beradi.

Huquqiy nigilizm, ya'ni huquqqa salbiy munosabat uning ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishiga ishonmaslikka olib kelishi mumkin.



Ayrim odamlarning ongi buzilgan, ikkiyoqlama ziddiyatlidir. Chunki ular o'zaro sig'ishmaydigan aqida va qoidalarni birlashtirishga urinadilar. Salbiy hissiyotlar, har tomonlama ta'sirlar va rag'batlarning jamlanishi haddan tashqari ijtimoiy keskinlik keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin. Bu aholining sezilarli darajada asabiylashganida va ruhiyatida nuqsonlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Globalashuv jarayonlari dunyo mamlakatlarida so'nggi yillarda voqealarning o'zgarish miqyosi, voqelikni yalpi qayta anglash bo'yicha aholining ayrim guruhlarida sarosima kayfiyatini yuzaga keltirayotgani barchaga ayon. Dunyo mamlakatlari aholisining aksariyat tabaqalari yuz berayotgan voqealarni milliy halokat sifatida qabul qilmoqdalar. Bu kabi tasavvurlarni manfaatdor shaxslar va guruhlar faol qo'llab-quvvatlamodalar va ulardan

o'zlarining xudbin manfaatlari yo'lida, hokimiyat va boylik uchun kurashlarida foydalanmoqdalar.

Mazkur holatlar ko'proq fuqarolar bilan bevosita aloqada (turli litsenziyalar, ruxsatnomalar, ma'lumotnomalar va shu kabilarni berish sohasida) ishlovchi quyi va o'rta bo'g'in amaldorlarida yuz bermoqda. Ushbu holatlarning paydo bo'lishi korruptsiyani yuzaga chiqaruvchi yuqorida keltirilgan muammo va shart-sharoitlarga ham, ijtimoiy-psixologik omillarga ham bog'liq. Ularni tushunish korruptsiyaga qarshi kurashish uchun nima qilish kerakligini osonroq aniqlashga yordam beradi.

Individual (*guruhiy*) darajada korruptsiyalar xos bo'lgan quyidagi belgilarni ajratishimiz mumkin:

- hozirjavoblik va tiliga erk berish;
 - tashqi xotirjamlikka ehtiyoj, yopiqlik;
 - davlat (*va boshqa*) manfaatlariga nisbatan sotqinlik va xiyonat;
 - o'zini saqlab qolishga qaratilgan yorqin ifodalangan intilish (*buning uchun pora berishdan foydalanish*);
 - bugungi kun bilan yashashga intilish;
 - "dunyoning kuchli odamlari" bilan do'stona munosabatlarga egalik va intilish, ularning ta'siridan foydalanish.
- Umuman olganda, korruptsiyaga eng ko'p darajada xos bo'lgan jihatlari quyidagilar:

- subyektlarning yuksak ijtimoiy mavqeyi;
- maqsadlarga erishishning nozik intellektual usullari va vositalari;
- jamiyatga yetkaziladigan ulkan moddiy va ma'naviy zarar;
- nihoyatda yashirinlik va kelishuvchanlik xarakteri;
- hokimiyat idoralari uchun ushbu guruh jinoyatchilariga "tushunib" munosabatda bo'lishi.

Eng ko'p tarqalgan motivlarga xizmat o'tash bilan bog'liq zarar uchun kompensatsiya to'lash mavjud. Insonlarni axloqiy immunitetni yo'qotishga quyidagilar undaydi:

- yuqorida keltirilgan beqarorlik hissiyoti;
- xodimning malakasi va ishning mas'uliyatiga mos kelmaydigan kam maosh (*Jahon banki o'tkazgan tadqiqotning ko'rsatishicha, korruptsiyaning asosiy sababi amaldorlar maoshining kamligidir*);
- xizmat bo'yicha ko'tarilishdagi adolatsizlik;
- rahbariyatning soxta obro'si yoki bilimsizligi;
- korruptsiyaga qarshi qonunlarning yo'qligi yoki nomukammalligi;

• "yirik" korruptsiyalar uchun jazosiz qolishi.

Bunga qarshi davlat xizmati tizimini tegishli o'zgartirish va korruptsiyaga qarshi qonunlarni qabul qilish bilan kurashish mumkin.

Mutaxassislar ta'kidlashlaricha, o'tish davrlarida amaldor korruptsiya qarorni ba'zan yangi tizimga qarshi o'ziga xos qo'poruvchilik deb baholaydi. Poraxo'r o'zini "jinoyi tuzum"ga qarshi g'oyaviy kurashchi sifatida tasavvur qiladi, aslida esa u oddiy tamagirdir.

Korruptsiyani yuzaga keltiradigan yana bir nechta ijtimoiy-psixologik omillarni keltirish mumkin. "Butun hokimiyat sotilgan, hamma narsa sotiladi va sotib olinadi" degan fikr hamda birinchi korruptsiyaviy qarorning qabul qilinishi amaldorni o'rab turgan axborot muhiti tufayli yuzaga kelishi mumkin. Har kuni bir xildagi "bizda hamma pul oladi!" degan gapni eshitadigan va o'qiydigan halol amaldor o'zini boshqalardan ajralgan, hatto hech kim pora ham taklif qilmaydigan "omadsiz" odam deb his qila boshlashi mumkin. Bundaylarga faqat "omadli holni" kutish qoladi.

Shu bilan birga, "boshqalardan ajralgan", pora olish yoki berishdan bo'yin tovlaydigan shaxslarning boshqa toifasi ham mavjud bo'lib, ularga odamlar begonalarga qaragandek, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lalilar va ba'zi hollarda ulardan qutulishga harakat qiladilar.

Muzaffar AKRAMOV,
 Mudofaa vazirligi
 Korruptsiyaga qarshi
 ichki nazorat bo'limi bosh
 mutaxassisi

BELLASHUV

Eng kuchlilar saralandi

Chirchiq shahridagi sport majmuasida yozgi biatlon bo'yicha yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tashabbusi bilan Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi, viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi hamda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan mazkur musobaqada "Vatanparvar" tashkilotining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda joylashgan hududiy kengashlari tasarrufidagi o'quv muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport seksiyalari va to'garaklarining sportchilari hamda yoshlar ishtirok etdi.



Musobaqada sportchilar 3 ta bosqich bo'yicha bellashdilar. Birinchi bosqich "Spring" deb nomlanib, unda o'g'il bolalar 4 kilometr, qiz bolalar 3 kilometr masofaga yugurishdi va o'q otish bo'yicha meraganliklarini namoyish etishdi. "Pasyut" bahsida esa o'g'il bolalar 6 kilometr, qizlar esa 5 kilometrga yugurib, o'q otish bo'yicha bellashgan bo'lsa, uchinchi – "Sprint roller" bahsida o'g'il bolalar 10 kilometr, qizlar 7,5 km masofaga yugurishdi.

Shiddatli va murosasiz o'tgan bahslar so'ngida g'oliblar aniqlandi. Unga ko'ra, har bir bosqich bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilar nomi e'tirof etildi. Umumjamo'a hisobida esa Namangan viloyati jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2 va 3-o'rinni Toshkent va Farg'ona viloyati jamoasiga nasib qildi.

Musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritgan va faol ishtirok etgan sportchilar taqdirlandi.

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Yangi maqsadlarga ruhlantirdi

"Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashi tasarrufidagi Ohangaron o'quv sport-texnika klubida o'quvchi-yoshlar uchun ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Unda Ohangaron tumanidagi umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbir davomida yoshlar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasasida tashkil etilgan sportning texnik va amaliy turlari, "Kemamodel", "Raketamodel", "O'q otish" to'garaklari faoliyati bilan tanishib, o'quv mashq avtomobillari to'g'risida tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Sayohat davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislardan kerakli javob oldilar. Eng muhimi, ko'rgan va eshitganlaridan ruhlangan 20 nafardan ortiq yoshning mazkur sport to'garaklariga a'zo bo'lish istagini bildirgani o'ziga xos yangilik bo'ldi.



Tadbir davomida yoshlar "Vatanparvar" tashkilotida uzoq muddat ishlab, hozirda qarilik gashtini surayotgan ustoz-murabbiylar bilan "Uch avlod uchrashuvi" tadbirida hamsuhbat bo'lishdi hamda "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik jamoalarining va'da berish tantanalarida qatnashishdi.

TURKIY ISMLARGA QACHON QAYTAMIZ?



Jiyanim qo'ng'iroq qilib qoldi:

- Ammajon, suyunchi bering, o'g'illi bo'ldim.
- Qutlug' bo'lsin, muborak bo'lsin! – xursand bo'lib ketdim xushxabardan, – istiqboli nurli bo'lsin, ilohim.
- Rahmat, ammajon, aytganingiz kelsin. Ismini Umar qo'yomoqchiman, nima deysiz?
- Umarbek yaxshi ism. Umarjon desa ham bo'ladi. (*Harqalay, qulog'imga shunday eshitildi*).
- Yo'q, Umar emas, "O" bilan boshlanadi, Omar, ya'ni arabcha haqiqiy aytilishini qo'yomoqchiman. Hech qanday "bek", "jon" qo'shimchalari kerak emas.
- O'ylab qararasam, millatimizda qo'yilgan ismlarning to'qson foizini arabiy va forsiy ismlar tashkil etar ekan. "Jon", "xon", "bek" qo'shimchalari bilan ularni "o'zimizniki" qilib olamiz. Jiyanimning fikridan keyin... Aslida millatga xos ism ham milliy qadriyat sanaladi. O'zligini anglagan millat egalari buni unutmasligi kerak.
- Akayo, Genrix, Vladimir, Jun-san, Vaso, Akshay, Syaomin... Bu ismlarni eshitgan zahoti qaysi millat vakili ekanligini anglab yetdingiz, shundaymi? Ba'zi ismlar ko'p millatlarda uchraydi, masalan, Denis. Ammo ularning familiyalari orqali bema'lol millatini ajrata olasiz. Misol keltiradigan bo'lsak, gruzin xalqining familiyalari "dze" yoki "shvili" qo'shimchalari bilan aytiladi: Maxarashvili, Shvenadze, Beridze... Arman millatida "yan" qo'shimchasi mavjud. Rus millati ism-shariflarida esa "vich" bor. Bu o'z davrida bizga ham "meros" bo'lib o'tgan.

Ismlari biz bilan bir xil bo'lgan qo'shni davlat Tojikistonda familiyalar "zoda" qo'shimchasi bilan yuritiladi: Qurbonzoda, Rahmonzoda... Shu o'rinda ikki-uch yil avval ijtimoiy tarmoqlarda berilgan xabarga ko'ra, ushbu davlatda tug'iladigan chaqaloqlarga faqat tojik,

ya'ni forsiy ism qo'yilishi haqida qaror chiqqanini eshitgandim. Bu xabar qay darajada to'g'ri bilmadim, biroq buni eshitib xursand bo'lganman. Chunki ism har bir millatning o'zligini anglatib turishi kerak. Tojiklarda ism tanlash muammo emasligi aniq. Bizda-chi?!

Xorijda davlatimiz xizmatida bo'lgan o'g'lim qo'ng'iroq qilib qoldi. Salom-alikdan so'ng muddaoga o'tdi:

– Keliningiz shu kunlarda ko'payishadi. Farzandimga turkiy ism qo'yomoqchiman.

– To'g'ri o'yilabsan, o'g'lim, – xursand bo'ldim fikridan. – Ism ham millatni anglatib turuvchi qadriyat.

– Shunday, ayajon. O'zingizga yoqqan turkiy ismlardan yozib yuboring...

Yevropada tug'iladigan nabirangga ism tanlash uchun kutubxonalardan turkiy ismlar kitobini izlay boshladim. Baxtga qarshi bunday kitob topa olmadim. Umumiy ismlar kitobida esa asosan, arabiy va forsiy ismlar joy olgan. Shunga ham yetti yil bo'lyapti. Hozir ham bunday kitob bor deb o'ylamayman. Negaki, yurtimizda tug'ilayotgan chaqaloqlarga asosan arabiy ismlar qo'yilmoqda. Albatta, bu islom diniga e'tiqod qilishimiz bilan uzviy bog'liq. Mamlakatimiz aholisining to'qson foizini musulmonlar tashkil etadi. Albatta, dinimizni yaxshi ko'ramiz, e'tiqod qilamiz, musulmon ekanimizga shukronalar keltiramiz. Biroq bu e'tiqod millatimizga – o'zligimizga tegishli bo'lgan qadim qadriyatlarimizga raxna solmasligi kerak.

Atrofimdagi ba'zi voqealardan hayratga tushaman. Nima emish, allakim islom diniga e'tiqodi kuchayib, o'z ismini arabiy qilib o'zgartiribdi. Shu o'rinda, bir haqiqatga yuzlanishimiz shart deb o'ylayman, ya'ni arabiy ismlar islom dini kirib kelmasidan avval, o'z tillari bilan aytganda, jaholiyat davrida ham xuddi shunday bo'lgan. Islom dini kirib kelganidan keyin islomiy ismlar joriy qilinganda, farz qilinganda ham mayli edi. Aytmoqchimanki, arab millati qadim davrlardan buyon ajdodlari ismini ardoqlab kelmoqda.

Shunday ekan, turk eli farzandlari nima uchun ajdodlaridan meros turkiy ismlarni unutishi kerak? Nima uchun yurtimiz egalari o'zga millat ismlari bilan dunyoga bo'y ko'rsatishi kerak?! Nima uchun Turon elida yashab o'tgan otabolarimiz, ena-momolarimiz ismi chetda qolmoqda, unutilmoqda? Ko'ksida Vatanga, millatiga muhabbati sobit inson borki, buni o'ylab ko'rishi lozim.

Turkiya davlati kinorejissyorlari tomonidan tarixiy voqealar asosida suratga olingan "Choliqushi" badiiy filmi barchamizga yaxshi tanish. Yodingizda bo'lsa, shu filmda qizlardan iborat sinf

o'quvchilari ustozlariga bir-bir o'zlarini tanishtiradi: Ayshe, Ayshe... ya'ni qizlarning asosiy qismining ismi Ayshe bo'ladi. Hozirda esa turk filmlaridagi qahramonlarning ismlari deyarli turkona: Chechak, Gulzor, Dunyo, Osmon, Sevgi, Bahor, Turon, Arslon... Qanday go'zal ismlar. Darhaqiqat, qadim ajdodlarimiz tabiat bilan uyg'unlikda ism qo'yishgan. Qo'shnimiz Qozog'istonda ham bizga nisbatan turkiy ismlarga ko'proq e'tibor qaratilishiga guvohman.

Maqolani tayyorlash jarayonida turkiy ismlar berilgan kitobni topa olmagach, ijtimoiy tarmoqdan foydalandim. Afsuski, ijtimoiy tarmoqda ham "turkcha ismlar ro'yxati qani?" degan so'roqqa duch keldim, ya'ni ismlar berilmagan.

O'zbekcha ismlar ma'nosi degan bo'limda esa uchta rukn bo'lib, birinchisi "Arabcha", ikkinchisi "Boshqalar", uchinchisi "Fors-tojikcha", deya belgilanibdi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, o'zbekcha ismlar bo'limida "O'zbekcha" degan ruknning o'zi yo'q. Bu qay darajada afsuslanarli ekanligini anglab yetgandirsiz?!

Men muxbir sifatida vatanparvarlik ruhidagi ko'plab tadbirlarda ishtirok etganman. Biroq mana shu yig'inlarning birortasida o'g'il-qizlarimizga turkiy ismlar qo'yish haqida so'z yuritilganini eslay olmayman. To'g'rirog'i, bu borada biror marotaba fikr bildirilmagan, bahs-munozara bo'lmagan.

Donolarimiz "Ismlarda hikmat bor", deyishadi. Darhaqiqat, qadim ajdodlarimiz shu haqiqatga qattiq amal qilishgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yishga katta e'tibor qaratilgan. Yangi mehmonga kattalar ishtirokidagi marosim orqali ism tanlangan. Ma'nosi, jarangdorligi inobatga olingan.

O'zbekcha ismlarni izlash chog'ida Otabek va Kumush ismlariga duch keldim. Qarang, o'zbekning ulug' yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining betakror asari "O'tkan kunlar"ning bosh qahramonlariga o'zbekcha ismlar tanlagan. Bu bejiz emas, albatta. Millat erki deya ko'ksi kuyib o'tgan yozuvchining chin ma'noda vatanparvarligidan dalolat bu.

Yaqinda hamkasblarimdan biri nabirasiga Alp-Arslon, deya ism qo'ydi. Turkiylarga xos qanchalar chiroyli ism. Umidim, tilagim, yurtimizda mana shunday Alp-Arslon, Alp-Tegin, Oybarchin va To'maris kabi turkiy ismlar ko'paysin. Sizga necha yuzlab arabiy va forsiy ismlar ichidan izlab-izlab topganim – o'zbekcha ismlarni ilindim. Farzandlarimiz, nabiralaringizga o'zligimizga xos bo'lgan turkona – o'zbekona ismlardan qo'ysangiz, ajabmas. Zero millatparvarlik va o'zligini anglashdan dalolat bu!

Gulbarshin – ipak guli degan ma'noni anglatadi. Guldek chiroyli, nafis, ko'zni qamashtiruvchi husnga ega.

Ilzara – millatning gavhari, ko'zni qamashtiruvchi chiroyga ega.

Ismediyor – Vatanga, xalqiga vafodor, jonini beruvchi yetuk inson.

Istiqbol – kelajagi buyuk, toleyi baland, ulkan zafarlarga erishuvchi.

Istiqloq – ozod, erkin, o'ziga qaram bo'lmagan, mustaqil.

Nagima – jannat, saodat, jannatiy inson bo'lsin ma'nosida. Nargila – chiroyli, maftunkor, dilrabo qiz.

Nurlana – hayoti baxtga to'la, farishtali, nurli, maftunkor. Sevarbek – yurtini, elini, yaqinlarini sevadi.

Faxrina – yaxshi fazilatlarini o'zida mujassam qilgan, barchaga o'rnak qilib ko'rsatishga arzilri.

Xushnur – xushkayfiyat inson, chehrasi nurli.

Esfira – osmondagi yulduzdek charog'on, porloq. Hayot yo'li nurli, farovon.

Bobur – yo'lbars, arslon, ulug', buyuk. Shuningdek, tez gapiradigan odam ma'nosi bor.

Botir – mard, jasur, qo'rqmas.

Yorqin – kelajagi porloq, mehr-shafqatli, muruvvatli, ko'ngli ochiq.

Jo'rabek – do'stlikni qadrllovchi, jo'ralarning begi.

Lochin – lochindek ziyrak, dovyurak, chaqqon, tezkor.

Oybek – beklar naslidan bo'lgan omadli, baxtli, oydek porloq.

Otabek – shahzoda, xonzoda, beklar boshlig'i, yetakchisi, sardori, obro'-e'tiborli, nasl-nasabli.

To'lqin – hayotda yayrab, yashnab, dengiz to'lqinidek jo'shqin, to'lib-toshib yursin degan ma'no mujassam.

Ulug'bek – buyuk hukmron, buyuk sulton yoki beklarning begi.

O'ktam – g'amxo'r, mehr-muruvvatli yoki mag'rur, viqorli, mustaqil, erkin.

O'tkir – mohir, aqlli, zakovatli, dono, bilimli, zehni, ziyrak.

Uchqun – hayoti nurli, toleyi porloq, iqboli baland, saodatli va omadli.

Fayzbek – beklar avlodiga mansub, fayz-barakali, omadli, saxovatli.

Erkin – hur, ozod, mustaqil, hech kimga tobe bo'lmagan.

Elbek – elning boshlig'i, sardori, yo'l boshchisi.

Oybarchin – oy yuzli, oy chehrali, iboli, hayoli, qalbi pok. Binafsha – ko'rkam, nafis, suluv.

Yorqinoy – hayoti nurli, mehribon, dilkash qiz.

Ifora – xushbo'y, yoqimli iforli, nafis hid taratuvchi.

Kamola – kamolga erishgan yetuk, zebo, ko'rkam, mukammal.

Kumush – kumushdek yorqin, qadri, oq yuzli, oqbadan go'zal.

Nargiza – nargis (*bo'tagul*)dek nozik, nafis, zebo, go'zal.

Yulduz – yulduzdek yorug' yuzli, nurli, chiroyli, latofatli. Toleyi yulduzdek yuksak va iqboli porloq.



jihati, ikki sportchimiz ham bir xil – 1.86 metr balandlikni zabt etdi. Medallar esa urinishlar soniga qarab taqsimlandi.

Olga Zabelinskaya 18.3 km masofani 24:35.99 daqiqada bosib o'tib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Barakalla!

O'Q OTISH

Osiyo o'yinlarining o'q otish bahslarida mamlakatimiz sport sharafini himoya qilgan Vladimir Svechnikov 10 metr masofadan to'pponchadan otish dasturida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Merganimiz saralash bahslarida 579 ochko jamg'arib, finalga chiqdi. Hal qiluvchi bahslar yakunida esa Vladimir bronza medal sohibiga aylandi. Ushbu yo'nalishning jamoaviy bahslarida qatnashgan yigitlarimiz ham sovrindor bo'lishga yaqin bordi. Lekin yakuniy natijalar jamoamiz 4-o'rinni egallaganini ko'rsatdi.

TAEKVONDO

Taekwondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi "Xanchjou – 2022"ning aralash jamoaviy bahslarida bronza medalni qo'lga kiritgani haqida xabar bergan edik. Ushbu muvaffaqiyatga erishishga MVSM vakillari Jasur Jaysunov va Svetlana Osipova ham o'z ulushini qo'shgandi. Svetlana Osipova oradan

bir necha kun o'tib, XIX yozgi Osiyo o'yinlarining yana bir bronza medaliga ega bo'ldi. Vazni 67 kg.dan og'ir bo'lgan ayollar o'rtasidagi yakkalik bahslarida qatnashgan sportchimiz ishtirokini chorak finaldan boshladi. U eronlik Anahita Tavakoli ustidan 2:1 hisobida zafar quchdi. Murosasiz kechgan yarim final jangida esa xitoylik Zeki Chjouga imkoniyatni boy berdi va taekvondochimizga "kichik Olimpiada"ning bronza medalini topshirildi.

Muxlislarga yaxshi tanish bo'lgan MVSMning yana bir vakili Nikita Rafalovich ham "Xanchjou – 2022" sovrindorlari qatoridan joy olishga yaqin bordi. Afsuski, erkaklar o'rtasidagi 80 kg.dan ortiq vazn bo'yicha bahslarda qatnashgan taekvondochimiz chorak finalda mag'lubiyatga uchradi.

VELOSHOSSE

Mahorat yosh tanlamaydi. Buni biz tajribali sportchimiz Olga Zabelinskaya misolida ham ko'rishimiz mumkin. 43 yoshida Osiyo o'yinlarida chempionlikni qo'lga kiritgan sportchimiz halihamon ko'plab raqiblaridan jismoniy tayyorgarlik jihatdan yaxshiroq ekanini ko'rsatish barobarida delegatsiyamiz hisobiga muhim medallarni taqdim etyapti. XIX yozgi Osiyo o'yinlarning individual veloshosse poygasida qatnashgan

TENNIS

Tennis bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Humoyun Sultonov ham delegatsiyamiz hisobiga yana bir medal keltirdi. Yarim finalda jahon tasnif jadvalida 60-o'rinni egallab turgan xitoylik Chjinchjen Chjan bilan bahs olib borgan sportchimiz 4:6, 1:6 hisobida imkoniyatni boy berdi va bronza medal bilan taqdirlandi.

BOKS

Boks bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi a'zosi Nigina O'ktamova XIX yozgi Osiyo o'yinlarida sovrindor bo'lish barobarida "Parij – 2024" yozgi Olimpiadasi yo'llanmasiga ham ega chiqdi. Ayollar o'rtasidagi 54 kg.gacha vazn toifasi bo'yicha bahslarda qatnashgan bokschimiz yarim finalga qadar muvaffaqiyatli yetib bordi va "Parij – 2024" yozgi Olimpiadasi yo'llanmasiga ega bo'ldi. Yarim final jangida esa hamyurtimiz KXDR vakili Cholmi Pangga imkoniyatni boy berib qo'ydi. Shunday bo'lsa-da, O'ktamovaga "kichik Olimpiada"ning bronza medalini topshirildi.

Musobaqalar davom etyapti.

marotaba o'zbekistonlik sportchilar shohsupaga ko'tarilmagani va bu borada "Xanchjou – 2022"da tarixiy voqelik qayd etilgani, vakillarimiz sovrindor bo'lgani xususida avval xabar bergan edik. Qilichbozlikning sablya yo'nalishi bo'yicha yakkalik bahslarida bronza medalni qo'lga kiritgan MVSM vakili Zaynab Dayibekova "Xanchjou – 2022"da yana bir bor shohsupaga ko'tarildi. Delegatsiyamizning ikkinchi bayroqdori bu safar jamoaviy bahslarda qatnashib, sovrindor bo'ldi. Zaynab Dayibekova, Guliston Perdabayeva, Paola Pliyegodan tashkil topgan qizlar terma jamoamiz chorak finalda Singapurni 45:32, yarim

beshinchini bo'lib marraga yetib keldi. Baydarka va kanoechilarimiz qit'a miqyosidagi yirik musobaqalarda doim sovrindorlar safidan joy olib kelgan. "Xanchjou – 2022"da ham ular bu an'anaga sodiq bo'lishdi. Buni erkaklar o'rtasidagi 1 000 metrga baydarkada eshkak eshish bo'yicha bahslarda qatnashgan MVSM vakili Shaxriyor Mahkamov boshlab berdi. U marrani ikkinchi bo'lib kesib o'tib, "kichik Olimpiada"ning kumush medalini qo'lga kiritdi. Baydarkada eshkak

delegatsiyasi hisobiga "Xanchjou – 2022"dagi dastlabki medalni Suhrob Xodjayeov taqdim qildi. Bosqon ulotirish sektorida qatnashgan hamyurtimiz 70.79 metr natija qayd etib, bronza medal bilan taqdirlandi. Ushbu dasturda oltin va kumush medalga Xitoy va Qatar vakillari egalik qildi.

Yengil atletikaning ko'pkurash dasturi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining katta tajribaga ega sportchisi, jumladan "Incheon – 2014" yozgi Osiyo o'yinlari g'olibi Yekaterina Voronina "Xanchjou – 2022"da ham yuqori mahorat namoyish etib, muxlis-u mutaxassislar e'tiborini qozondi. U ko'pkurashning uzunlikka sakrash dasturida 5.95 metr (834 ochko), nayza ulotirishda 49.76 metr (855 ochko) natija qayd etdi. 100 metrga to'siqlar osha yugurish yo'nalishida 14.47 soniya natija bilan o'z hisobiga 912 ochko yozib qo'ydi. Balandlikka sakrash bo'yicha esa 1.82 metr natija bilan 1 003 ochkoga ega bo'ldi. Ta'kidlash joiz, Voronina "Xanchjou – 2022"ning ko'pkurash dasturi bo'yicha bahslarida bu yilgi mavsumdagi o'zining eng yaxshi natijasini ko'rsatdi va 6 056 ochko bilan XIX yozgi Osiyo o'yinlarining kumush medalini sohibiga aylandi.

Yengil atletikaning balandlikka sakrash bahslari biz uchun muvaffaqiyatli o'tdi. Ushbu yo'nalishda mamlakatimiz sport sharafini himoya qilgan MVSM vakili Safina Sa'dullayeva oltin, Svetlana Radzivil esa kumush medalni qo'lga kiritdi. Qiziqarli



finalda Xitoyni 45:43 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Finalda qilichbozlarimiz Yaponiya terma jamoasiga qarshi bahs olib bordi. Unda ham vakillarimiz zafar quchib, tarixiy natija qayd etdi – qilichbozlik bo'yicha sablya yo'nalishida ayollar terma jamoamiz ilk bor Osiyo o'yinlari oltin medalini qo'lga kiritdi.

BAYDARKA VA KANOE

XIX yozgi Osiyo o'yinlarini baydarka va kanoechilarimiz juda muvaffaqiyatli boshladi. Musobaqaning birinchi kunida O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining barchasi o'zi ishtirok etayotgan dastur bo'yicha bahslar yakunida finalga yo'l oldi. Natijada atletlarimiz keyingi kunlari 6 tadan jami 12 dasturda medallar uchun kurash olib boradigan bo'ldi.

Ikkinchi kungi bahslar esa sportchilarimiz uchun biron omadsiz kechdi. Xususan, 500 metrga kanoeda eshkak eshish bo'yicha juftlik bahslarida qatnashgan MVSM vakili Artur Guliyev hamda Kamron Ahtamovdan yurtimiz sport muxlislari yuqori natija kutishgandi, lekin ular marrani to'rtinchi bo'lib kesib o'tishdi. Baydarkachi yigitlarimiz Denis Onufriyev hamda Ozodjon Amriddinov esa yettinchi pog'onadan joy oldi. Shu masofaga ayollar o'rtasida kechgan bahsda Nilufar Zokirova (MVSM) hamda Gulbahor Fayziyeva juftligi

eshish bo'yicha ayollar o'rtasida 500 metr masofaga o'tgan juftlik poygada esa Yekaterina Shubina hamda Arina Tanatmishevadan iborat juftligimiz bronza medalga sazovor bo'ldi. 1 000 metrga kanoeda eshkak eshish bo'yicha erkaklar o'rtasidagi bahslarda qatnashgan Vladlen Denisov delegatsiyamizga yana bir kumush medalni taqdim etdi.

Uchinchi kungi bahslar vakillarimiz uchun yanada muvaffaqiyatli kechdi. Kanoeda eshkak eshish bo'yicha 1 000 metrga o'tgan final bahsida Shohmurod Xolmurodov va Nurislom To'xtasin o'g'li juftligi masofani 3 daqiqada 43.796 soniyada bosib o'tib, oltin medalga sazovor bo'ldi. MVSM vakili Nilufar Zokirova va Shohsanam Sherzodovadan iborat juftlik esa ayollar o'rtasida 200 metrga kechgan kanoeda eshkak eshish bo'yicha bahslarda bronza medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Shahrizoda Mavlonova, Arina Tanatmisheva, Yekaterina Shubina hamda Yuliya Borzova (MVSM) kvarteti baydarkada eshkak eshish bo'yicha 500 metrga kechgan dasturda bronza medalga ega bo'ldi.

YENGIL ATLETIKA

Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi



Rasul JUMAYEV, «Vatanparvar»

OSTEOPOROZ



kasalligi nima?

Osteoporoz tizimli progressiv xarakterga ega bo'lgan kasallik, uning asosiy alomati suyak to'qimalari tuzilishining buzilishi va suyak zichligining pasayishidir. Suyak zichligining pasayishi sinish ehtimolining oshishiga olib keladi. Osteoporotik sinishlarning o'ziga xos xususiyati ularning kichik jismoniy yuklamalar tufayli paydo bo'lishidir.

Osteoporozda asosiy xavf bu – sinishlarning kam ifodalangan jismoniy yuklamalarda paydo bo'lishi va o'ta muhim suyak tuzilmalari – umurtqa pog'onasi, son suyagining bo'yin qismi sinishiga olib keladi. Sinishlar keksa yoshda juda ko'p asoratlar bilan ifodalanadi, ya'ni yotoq yaralar paydo bo'lishidan tortib, hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan dimlanish pnevmoniyasi rivojlanishigacha. JSST ma'lumotiga ko'ra, osteoporoz insonlar o'limining yurak-qon tomir kasalliklari, o'smalar va qand kasalligidan keyin 4-o'rinda turadigan sababidir. Bu tashxis qo'yilgan bemorlarning o'limining asosiy sababi aynan son suyagi bo'yinchasining sinishi hisoblanadi.

OSTEOPOROZNING ASOSIY SABABLARI:

- ayollarda menopauzadan keyingi osteoporoz ayol jinsiy gormonlarining kam ishlab chiqarilishi bilan bog'liq;
- senil (qarilik) osteoporozni menopauzaga qaraganda kengroq tushunchadir. Inson tanasining qarishi ko'p sonli organlarning, shu jumladan suyak to'qimalarining ichki tuzilishining buzilishi bilan birga kechadi. Organizmning qarishi tufayli keksalikda suyak zichligi pasayishi kuzatiladi;
- glyukokortikoid osteoporoz glyukokortikoid gormonlar buyrak usti po'stlog'ining gormonlari va ularning sintetik analoglari bilan uzoq muddatli davolanadigan bemorlarda rivojlanadi, ularning asoratlaridan biri suyak to'qimalari faoliyatining buzilishidir;
- ikkilamchi osteoporoz surunkali og'ir kasallik bo'lib, bunda osteoporoz birlamchi kasallikning belgilari yoki asoratlaridan biridir, shuning uchun u ikkilamchi deb ataladi, u ikkinchi darajali rivojlanadi. Ikkilamchi osteoporozning sababi qand kasalligi, xavfli o'smalar, buyrak yetishmovchiligi, ba'zi o'pka kasalliklari, tireotoksikoz (qalqonsimon bezning haddan tashqari funksiyasi), gipotiroidizm (qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi), surunkali gepatit, paratiroid adenomasi (birlamchi giperparatiroidizm) kabi kasalliklar bo'lishi mumkin. Shuningdek, uning rivojlanishining sababi oziq-ovqatda kalsiy va D vitaminining uzoq muddatli yetishmasligi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga qonda kalsiyning almashuvi buziladi va organizmning kalsiyga bo'lgan ehtiyojini qondirish tufayli suyaklardagi zaxiralari yetishmovchiligi yuzaga keladi. Natijada osteoporoz paydo bo'ladi.

Suyak to'qimasida o'zaro qarama-qarshi ikkita jarayon doim birga kuzatiladi – osteogenez (suyak to'qimalarining shakllanishi) va suyak to'qimalarining rezorbsiyasi (so'rinishi). Suyak – inson tanasini saqlash va tartibga solishning muhim funksiyalarini ta'minlaydigan tirik tuzilma. Inson suyagi o'zaro bog'langan va kesishgan suyak nurlarining murakkab tarmog'i bo'lib, uning yo'nalishi va kuchi suyakka ta'sir qiluvchi mexanik yuklamalarga qarshi turishga imkon beradi. Inson hayoti davomida yuklamalarning tabiati o'zgaradi, o'sish va tana vazni o'zgaradi, bularning barchasi suyakni yangi sharoitlarga moslashishga hamda unga ta'sir qiluvchi kuchlarga qarshilik ko'rsatishga majbur qiladi. Suyak to'qimasi bir joyda yo'q qilinadi va boshqa joyda hosil bo'ladi. Bu jarayon suyaklarni qayta qurish deb ataladi va doimiy ravishda davom etadi. Qayta qurish paytida suyak to'qimasini yo'q qilish uchun maxsus osteoklast hujayralari javobgardir, ular buldozerlar singari suyak to'qimasini "tishlab", uni yo'q qiladi.

Yangi suyak to'qimasining shakllanishi hujayralar – osteoblastlar tomonidan amalga oshiriladi, ular yangi suyak to'qimasini – suyak matritsasini hosil qiladi, unga kalsiy tuzlari yotqizilib, qurilgan strukturaning mustahkamligini ta'minlaydi. Suyak to'qimasi so'rinishi jarayonlarining kuchayishi suyak shakllanishi jarayonlarining zaiflashishi bilan birgalikda osteoporoz rivojlanishining asosiy sababidir. Osteoporoz eski suyak to'qimasi buzilganda paydo bo'ladi va yangisi yetarli miqdorda hosil bo'lmaydi. Shuningdek, uning paydo bo'lishining sababi suyaklarga kalsiy tuzlarining yetarli darajada singmasligi bo'lishi mumkin. Bu holda suyak yumshoq bo'ladi, qo'llab-quvvatlovchi funksiyalarini bajarishni to'xtatadi.

OSTEOPOROZ UCHUN XAVF OMILLARI

Bolalik va o'smirlilik davrida suyak to'qimasini shakllantirish jarayoni uning rezorbsiyasidan sezilarli darajada ustunlik qiladi. Inson qanchalik yoshi ulg'aysa, uning shakllanishida ko'proq suyak halokati ustunlik qila boshlaydi. Menopauzadan keyin ayollarda suyak rezorbsiyasi jarayoni, ayniqsa kuchayadi. Shuning uchun ayollarda osteoporoz qarilikda uchraydigan odatiy va juda keng tarqalgan kasallikdir.

OSTEOPOROZ XAVFINI OSHIRADIGAN OMILLAR MAVJUD:

- ayol jinsi (ayollar bu kasallikka erkaklarga nisbatan ancha sezgir);
- oiladagi, qarindoshlardagi osteoporoz (bu kasallikka genetik moyillik juda muhim);
- 2 kam harakatchanlik (immobilizatsiya, shikastlangan bemorning oyoq-qo'llarini yoki tanasini immobilizatsiyalash, bemorning og'irligi, harakatlanishini qiyinlashtiradigan ruhiy kasalliklar);
- glyukokortikoid gormonlarning yuqori dozalari yordamida davolash;
- tarkibida alyuminiy moddasi bo'lgan dorilarni uzoq vaqt qabul qilish ham salbiy ta'sir qiladi. Masalan, gastrit yoki oshqozon yarasida me'da shirasining kislotaliligini kamaytirish uchun ishlatiladigan antatsidlar;
- bemorning ortiqcha vazni yoki kam vazni;
- chekish, alkogol va kofeinli ichimliklarni ortiqcha iste'mol qilish, harakat yetishmasligi, kalsiyga boy oziq-ovqatlarni kam iste'mol qilish (masalan, sut mahsulotlari), quyoshda qisqa vaqt bo'lish, D vitaminining yetarli darajada iste'mol qilinmasligi.

OSTEOPOROZ ALOMATLARI VA BELGILARI

Afsuski, osteoporoz uzoq vaqt davomida yorqin alomatlarsiz davom etadigan yashirin kasallikdir va shuning uchun uning tashxisi kechiktiriladi. Ko'pincha birinchi alomat sinishdir, faqat sinishdan keyin bemor tekshiruvni boshlaydi va shikastlanishning sababi osteoporoz ekanligini bilib oladi. Shu bilan birga bu kasallikni oldingi bosqichida, sinishlar paydo bo'lishidan oldin sezish imkonini beruvchi alomatlar mavjud. Ko'pincha bemorlar harakati o'zgaradi, tana bukchayishi paydo bo'lishi, tish to'qimalarining tez ishqalanishi kuzatiladi. Suyak og'rig'i osteoporoz rivojlanishiga shubha qilish imkonini beruvchi muhim belgilardan biridir. Eng ko'p uchraydigan og'riq umurtqa pog'onasi, son suyagi, bilak suyaklarida uchraydi. Ko'pincha og'riq noqulay holatda uzoq vaqt qolish, mexanik stress natijasida kuchayadi. Umurtqalarning sinishi yoki balandligining keskin pasayishi kuzatiladi. Qonda kalsiy yetishmovchiligining alomati mushaklarning bexosdan qisqarishi ko'rinishi bo'lishi mumkin.

OSTEOPOROZ TASHXISI

Hozirgi vaqtda osteoporoz tashxisi sezilarli qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Shuni esda tutish kerakki, an'anaviy

rentgenografiya osteoporozning rivojlanish darajasini baholay olmaydi, shuning uchun tashxis qo'yish uchun boshqa usullar qo'llaniladi. Rentgenografiya faqat rentgen nurlarida suyak zichligining xarakterli o'zgarishi bilan osteoporoz borligiga shubha qilishimizga imkon beradi, ammo davolanishni rejalashtirish va suyak zichligidagi o'zgarishlar dinamikasini baholash uchun uning holati to'g'risida miqdoriy ma'lumotga ega bo'lish va suyak zichligini raqamli ravishda ifoda eta olish kerak.

Suyak zichligini miqdoriy baholash osteoporoz tashxisida asosiy mezon hisoblanadi. Bu "densitometriya", ya'ni suyak zichlikni o'lchash usulidir.

Rentgen densitometriyasi bilan suyak rentgenografiyasi standart hududda amalga oshiriladi (odatda uchta standart hudud mavjud: son suyagi bo'yinchasi, bel umurtqasi, bilak). Rentgen tasvirini olgandan so'ng maxsus kompyuter dasturi shifokorni qiziqtirgan sohadagi suyak to'qimalarining zichligini hisoblab chiqadi va uni o'sha yoshdagi sog'lom odamga xos ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi.

Kompyuter tomografik densitometriya bilan kompyuter tomografiyasi multispiral tomografiyada amalga oshiriladi, so'ngra suyak zichligi hisoblanadi va mos yozuvlar bilan taqqoslanadi. Natijada, tadqiqot sohasidagi 1 sm³ suyak to'qimalarining zichligi hisoblab chiqilib, T- va Z-indekslar hisoblanadi. Kompyuter tomografiyasi densitometriyasining afzalligi – yuqori aniqlik va bemorning vaznidan qat'i nazar, suyak zichligini hisoblash qobiliyatidir.

Ultratovushli densitometriya ultratovush to'lqinining suyak to'qimasi orqali o'tish tezligini o'lchash orqali amalga oshiriladi. Suyak to'qimalarining zichligining pasayishi uni yanada bo'shashtirishi va suyakning tovush to'lqinlarini tezda o'tkazishiga imkon bermasligi isbotlangan. Suyak to'qimalarining zichligi qanchalik past bo'lsa, tovush to'lqini suyak yuzasi bo'ylab sekinroq ko'tariladi. Ultratovushli densitometriya suyaklar yuzasi bo'ylab ultratovush tezligini o'lchash uchun maxsus sensorlar bilan jihozlangan va qurilmaning o'rnatilgan dasturiy ta'minoti T- va Z-indekslarni aniqlash bilan suyak zichligini hisoblash imkonini beradi. Ultratovushli densitometriya yordamida osteoporoz diagnostikasi bir qator afzalliklarga ega, ya'ni bunda nurlanish kuzatilmaydi, bemorlar uchun qulay muhitda juda qisqa vaqt ichida o'tkazilishi mumkin. Tekshiruvning xavfsizligi shunchalik yuqoriki, ultratovushli densitometriya bolalar uchun ham, homilador ayollar uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Densitometriya 65 yoshdagi barcha ayollar uchun o'tkazilishi kerak, bu oddiy qoidaga rioya qilish keksa ayollar orasida sinishning tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

OSTEOPOROZNI DAVOLASH

Osteoporoz kasalligini davolash juda murakkab jarayon hisoblanadi. U bilan immunolog, revmatolog, nevrolog, endokrinolog,

ortoped-travmatolog kabi qator mutaxassislar hamkorlikda shug'ullanadi. Suyaklarda modda almashinuvining me'yorga kelishini ta'minlash, suyaklar sinishining oldini olish, og'riqlarni kamaytirish, bemorning harakat faolligini oshirish masalalari ham davolash jarayonining bosh maqsadi hisoblanadi. Deyarli barcha bemorlarga maxsus parhez, davolovchi jismoniy tarbiya va massaj buyuriladi. Albatta, har qanday jismoniy zo'riqish minimal darajada bo'lishi kerak.

Osteoporozni davolash bir necha muhim va o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat:

- osteoporozni keltirib chiqaradigan asosiy kasalliklar (tireotoksikoz, gipotiroidizm, Itsenko-Kushing sindromi va kasalligi, gipoparadizm va boshqalar) davolanadi;
- suyak massasini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar (kalsiy preparatlari, D vitamini, bifosfonatlar guruhidan dorilar va boshqalar);
- og'riq sindromining intensivligini kamaytirishga qaratilgan dorilar.

Osteoporoz uchun parhezning maxsus sirlari yo'q, yangi suyak to'qimasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan D vitamini va kalsiy tanaga yetarli miqdorda iste'mol qilishni ta'minlash kerak. Sut mahsulotlari, baliq, karam (shu jumladan, brokkoli), turli yong'oqlar kalsiyga boy. Tanadagi D vitaminining asosiy manbasi – baliq (yoki baliq yog'i). Quyosh nurlari ta'sirida terida sezilarli miqdorda D vitamini hosil bo'ladi.

OSTEOPOROZNING OLDINI OLIQ QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

Kasallik profilaktikasi ilgari sanab o'tilgan xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Oziq-ovqatdan kalsiy va D vitaminini yetarli darajada qabul qilishni ta'minlash muhim, buning uchun yuqorida sanab o'tilgan sut va boshqa kalsiyga boy oziq-ovqatlar ishlatilishi kerak. Spirtli ichimliklar va kofeinli o'z ichiga olgan ichimliklar va mahsulotlarni iste'mol qilishni kamaytirish lozim. Profilaktika maqsadida kalsiy va D vitamini preparatlarini uzoq muddat iste'mol qilish osteoporoz xavfini kamaytirishi mumkinligini isbotlovchi bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud.

3-4 yil davomida D vitamini bilan kalsiyning o'rtacha dozalarini qabul qilish nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarmaydi, balki suyak zichligini yaxshilashga imkon beradi. Jismoniy faollik osteoporoz rivojlanishining oldini olishda navbatdagi omildir. Osteoporozga shubha qilingan taqdirda qalqonsimon bezning ishini kuzatish zarurligini unutmaslik kerak. Buning uchun qalqonsimon bezning ultratovush tekshiruvini o'tkazish va asosiy testlar to'plamidan o'tish kifoya. Osteoporozni davolash bir necha yil davom etadigan uzoq jarayondir. Biroq barcha zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, suyak zichligini samarali oshirish va sinish xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Shaxobiddin SHUKUROV,
Mudofaa vazirligi Markaziy
harbiy Klinik gospitali
periferik asab kasalliklari
bo'limi shifokori

Favqulodda vaziyatlar tahlili

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish: muammo va yechimlar" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti, FVV Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi departamenti, Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti, FVV Seysmoprognozistik monitoring respublika markazi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti yosh olimlari va boshqa nodavlat tashkilotlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasining professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilar, kursantlar va talabalar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Anjumanda asosiy e'tibor mamlakatimizda so'nggi yillarda favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi tabiiy, texnogen jarayon va hodisalarni monitoring qilish hamda prognozlash, ehtimoliy oqibatlarini bartaraf etish borasida olib borilayotgan profilaktik tadbirlar tahlili, mavjud muammolar hamda ularning yechimi to'g'risida asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratildi. Anjumanni akademiya boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov kirish so'zi bilan ochib, mamlakatimizda ijtimoiy soha ilm-fan hamda innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mustahkam asoslari yaratilayotgani, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan dolzarb muammolarga mutaxassislar tomonidan zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida yechim topish va ilmiy izlanishlar olib borish, bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi hamda ijroga qaratilayotganligini alohida ta'kidladi.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil sodir bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar 131 tani tashkil etgan. Oqibatda 287 kishi halok bo'lgan, 297 nafari jabrlangan. Shundan tabiiy xususiyatdagi 55 ta favqulodda vaziyatda, halok bo'lganlar 127 nafarni, jarohat olganlar 88 nafarni tashkil etgan. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning asosiy qismini yong'inlar tashkil etgan. Yong'inlar 10 ming 260 tani tashkil etib, 7 ming 587 tasi (*umumiy yong'inning 73,9 foizi*) aholi yashash sektoriga to'g'ri keladi. Yong'in oqibatida halok bo'lganlar 107 nafar, jarohat olganlar 177 nafarni tashkil etadi. Yong'inlar kamayib borish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, moddiy zarar miqdori ortib borayotganligi qayd etildi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar iqtisodiyot tarmoqlari jadal rivojlanayotganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkablashib borayotgani favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lish xavfini yanada oshirayotganiga e'tibor qaratdi. Turli ijtimoiy va iqtisodiy obyektlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish, bartaraf etishdagi muammolarning yechimini topish, xavfsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirishda qo'l keladigan taklif va fikr-mulohazalar bildirildi.

Anjuman doirasida yosh olimlar, tadqiqotchilar va

iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan ixtirolar, innovatsion ishlanmalar bo'yicha ma'ruza, ko'rgazma hamda badiiy va maxsus adabiyotlar yarmarkasi tashkil etilib, anjuman qatnashchilarida katta taassurotlar qoldirdi.

Anjuman yakunida vazirlik va idoralardan kelgan ma'ruzachilarga, faol ishtirok etganlarga tashakkurnoma hamda sertifikatlar, esdalik sovg'alar tantanali topshirildi.

Dolzarb mavzudagi mana shunday anjumanlarning yuqori saviyada tashkil etilishi orqali sohada mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash, ilmiy muhokama etish, hal etish yo'llari bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mayor Farhodjon XOJAYEV,
akademiya katta o'qituvchisi

TANLOV

Eng ilg'or hamshiralar aniqlandi

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Men g'olib!" shiori ostida an'anaviy o'tkazilayotgan "Eng ilg'or mutaxassis" ko'rik-tanlovi yuzlab harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchilari toifasidan barcha yo'nalishlar bo'yicha eng ilg'orlarni aniqlash va munosib rag'batlantirishga xizmat qilib kelmoqda.



Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari tibbiyot punktlari hamda Nukus harbiy hospitalida faoliyat yuritayotgan Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari o'rtasida "Eng ilg'or hamshira" ko'rik-tanlovining g'olib va sovrindorlari aniqlandi.

Yetti nafar ishtirokchi beshta shart bo'yicha o'zaro bilim va tajribada bellashib, kuchli raqobat muhitini yaratdi. Tanishtiruv, kasbiy bilimlarga oid 30 ta test savoli, nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unligini namoyon etish, shartli yarador va jarohatlangan insonga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish hamda erkin mavzu kabi topshiriqlarni bajarish oson kechgani yo'q.

Natijalarga ko'ra, barcha shartlarni to'liq va sifatli bajarib, hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholangan Nukus harbiy hospitali terapiya bo'limi hamshirasi Zarina Toshpo'latova faxrli 1-o'ringa loyiq topilib, Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

G'olib va sovrindorlar harbiy okrug qo'mondonligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

OGOHLIK

Mavsumiy profilaktik tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga muvofiq, vazirlikka qarashli Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida "2023-yilning kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash" mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.



Tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad harbiy qismlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni betalafot o'tkazish, energetika hamda gaz tizimining barqaror ishlashini ta'minlash hisoblanadi.

Dastlab shaxsiy tarkib va harbiy qismlarda elektr energiyasi hamda gaz resurslarni yetkazib berishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish bo'yicha nazariy-amaliy profilaktik ko'riklar o'tkazildi. Shuningdek, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari, yong'indan xabar berish tizimlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Tadbir davomida shaxsiy tarkibning yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish to'g'risida umumiy bilim va tushunchalari sinovdan o'tkazildi.

Bu kabi profilaktik tadbirlar favqulodda sodir etilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga, yong'in xavfsizligi bo'yicha harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Boyovut tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarning jismonan va ma'nan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois ayni maqsadga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarning izchil ijrosini ta'minlash yuzasidan turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Hamkorlikdagi tadbirlar samarasi



Bugungi kunda tashkilotda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar tizimli, bosqichma-bosqich va samarali tashkil etilgan. Shu maqsadda tumanning eng chekka hududlarida ham aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!", "Ochiq eshiklar kuni", "Uch avlod uchrashuvi" kabi tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

Xususan, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostidagi "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri ham shular sirasidan. Xuddi shu kuni O'STKda zamonaviy ko'rinishdagi o'quv avtomobillarini saqlash uchun avtopavilyon ham foydalanishga topshirildi. Bu majmuada endilikda nafaqat avtomobillarni saqlash, balki yoshlar o'rtasida tashkil etiladigan har qanday tadbirlarni ob-havoning istalgan faslida o'tkazish imkoniyati yaratildi. Tadbirda Boyovut tumani hokimi Dilfuza Uralova, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi o'rinbosari Nizomjon Farmonov, tashkilotning viloyat kengashi raisi Ulug'bek Imomqulov, hududiy O'STK rahbarlari, mudofaa, maktabgacha va maktab ta'limi, IIB, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limlari hamda umumta'lim maktablari "Vatan tayanchi" otryadlari va klub a'zolari ishtirok etdi. Bayram

munosabati bilan ushbu majmuada "Vatanparvar" tashkiloti sovrini uchun o'tkazilgan shaxmat-shashka musobaqasida Sohil mahallasining uyushmagan yoshlari ishtirok etdi. Musobaqa yakuniga ko'ra, g'olib deb topilgan mahalla jamoalari diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

– Muhimi, tashkilotimiz tomonidan o'tkazilayotgan bunday tadbirlarga boy hayotiy tajribaga ega faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohasida, shuningdek turli musobaqa hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan yosh avlod vakillari ham jalb etilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Jamol Xoliqov. – Joriy yilning o'tgan oylari mobaynida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi bo'yicha 45 ta, 30 ta ma'naviy-ma'rifiy hamda 35 tadan ortiq ommaviy sport tadbiri o'tkazildi. Umumta'lim maktablari o'quvchilari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Quvnoq startlar", "Kim epchil-u, kim chaqqon?", "Yo'l harakati qoidalarining yosh bilimdoni", "Piyoda – umring bo'lsin ziyoda" kabi mavzularda viktorinalar hamda targ'ibot tadbirlari tashkil etilayotganligi ham shunday ishlarimiz sirasidandir.

Shu kunlarda klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda klubda "Havo millit'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiya va

to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu to'garaklarda 50 nafardan ziyod iqtidorli yoshlar muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'quv sport-texnika klubi tomonidan 9 ta tuman hamda klub, 5 ta viloyat musobaqasi o'tkazildi. Barcha musobaqalarda 500 nafardan ortiq sportchi qatnashdi. Albatta, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari tuman hokimligi, mudofaa ishlari bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi hamda maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari bilan hamkorlikda o'tkazilmoqda.

Ayni paytda mazkur dargohda xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun "A", "B", "BC", "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, haydovchilar malakasini oshirish, traktorchi, elektropayvandchilik kurslari ham tashkil etilgan. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida ming nafardan ziyod haydovchi tayyorlanib, bu boradagi rejaning to'liq bajarilishiga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tashkilotda avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgan. Mashg'ulotlarning ilg'or zamonaviy tajriba va texnologiyalar, innovatsion usullardan foydalangan holda olib borilishi o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Akbar ALLAMURODOV



BUGUN ERTAK KERAKMI?



Bunday keskin savol ko'pchilikka erish tuyulishi mumkin, albatta. Lekin mazkur savolni ko'ndalang qo'yish payti allaqachon kelgan. Mutaxassis olimlar, ya'ni folklorshunoslar ushbu savolga "Ertak – hamisha kerak!" deya javob berishlari turgan gap. Biroq "Ertaklarning o'zi haqiqatga aylanib borayotgan hozirgi shiddatli taraqqiyot davrida eski ertaklarga nima zarurat bor?" deya e'tiroz bildiradiganlar ham oz emas.

Kamina esa bu o'rinda bolalar uchun ertak-dostonlar va nasriy ertaklar yozuvchi bir ijodkor sifatida o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqchiman, xolos. Uzil-kesil xulosa chiqarish niyatidan yiroqman, zero bu – mutaxassislarning vazifasi.

Hammamiz bolaligimizda o'zbek xalq ertaklarini tinglab va o'qib ulg'ayganmiz, jahon xalq ertaklari bilan tanishganmiz. Dunyoqarashimiz shakllanishida ularning xizmati ulkan bo'lgani inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Ammo hozirgi yoshlarga qarab hayron bo'lamiz – bolalar nega ertak o'qimay qo'yishdi? Nima yaxshi ertak kitoblari kammi? Yo'q, yetarlicha bosilib turibdi. U holda, gap nimada bo'lishi mumkin? Shu masalada ko'pchilik bildirgan dastlabki fikr shuki, hozirgi shiddatkor davrning bolalarga ertak tinglab yoki o'qib o'tirish uchun qiziqish, sabr-toqat, qunt, vaqt yetishmaydi. Bu mulohazada jon bor, albatta. Keling, uni atroflicha ko'rib chiqishga bir urinib ko'raylik.

Aqlini tanigandan beri samolyotda bemalol uchib yuradigan bolaga uchar gilamning nima qizig'i bor? Televizor turganida oynayi jahon haqidagi ertakka na hojat? Internet tarmog'iga ulanish orqali istalgan film, tasvir, ma'lumotni kompyuterga, qo'l telefoniga yuklab olish imkoni esa, hatto Aloviddinning do'sti – sehrli chiroqning quli bo'lgan Jinda ham yo'q edi.

Mana shunday boy va ta'bir joiz bo'lsa, texnik taraqqiyot tufayli cheksiz imkoniyatlarga egalik qilayotgan hozirgi davr bolasi an'anaviy xalq ertaklarini o'qimay qo'ysa, ajablanadigan joyi bormi? To'g'ri, go'dakning murg'ak ongini birinchi bo'lib ertaklar yaxshilik va yomonlik nimaligi bilan tanishtiradi. Biroq zamonaviy multfilmlar, bolalar uchun yaratilayotgan ertak filmlarning maqsadi ham ana shu – ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni ko'rsatishdan iborat emasmi?

Shu o'rinda bir muhim jihatni ko'rib o'taylik. O'lis moziy bilan yaqin o'tmishning mushtarak xususiyati taraqqiyot sustligi edi. Hatto XIX asrda ham hayot osoyishta kechar, kunlar bir xil osudalikka to'la, vaqt nihoyatda imillab o'tayotgandek tuyulardi. Minglab yillar mobaynida yaratilgan an'anaviy folklor namunalari bu holat aks etmay qolmasdi. Shu sababli ertak, dostonlarda voqealar juda sekin rivojlanadi. Bu – birinchi sabab. Ikkinchi sabab shuki, o'tmishda bola ongining idrok qilish qobiliyati ham o'z zamonasiga monand holda osoyishtalikni taqozo etgan. Hozirgi shiddatli davr bolalarning ongi ham shunga munosib ravishda voqealar tezkor rivojlanishini talab qiladi. Kosmik davrga xos uchqurlik tuya karvonlarining bir maromdagi sust harakatini ko'tara olmaydi, aslo. Buni tushunish uchun ertak filmlar-u multfilmlarni kuzatishning o'zi kifoya.

Mana, endi navbat ertakchi yozuvchilarga ham yetib keldi. Aka-uka Grimmlar, Hans Kristian Andersen kabi adiblarning ijodi an'anaviy xalq ertaklarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi, ularga jon bag'ishladi, ohor berdi, deb aytish mumkin. Buni yangi davr, taraqqiyot taqozo etgan edi. Xalq ertaklariga xos shartlilik xususiyati saqlanib qolgan holda, badiiy ertaklarda obrazlar kuchaydi. "Ishonch kuch, ishonitirish esa san'atdir", degan naql bor. An'anaviy ertaklardagi "Ishonsang – shu, ishonmasang – o'zing bilasan" qabilidagi munosabat o'rini voqeabandlik, dinamika egalladi, bu ishonchlikni yanada orttirdi.

An'anaviy ertaklar go'yo birovdan eshitilgan bo'lsa, yozuvchilar badiiy ertaklarni baayni o'zlari ko'rgandek qilib hikoya etishardi. Ya'ni ishonchlik kuchaygani badiiy ertaklarni xalq ertaklaridan bir pog'ona yuqoriga ko'tarib, adabiy asarlar darajasiga yaqinlashtirdi, deb aytish mumkin.

Ayni shu fikr-mulohazalarni o'zbek badiiy ertakchiligiga ham tatbiq etsa bo'ladi. She'riy yoki nasriy shaklda bo'lishidan qat'i nazar, bu janr o'ziga xos murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Shu haqda atroflicha va asosli muhokama yuritish folklorshunos mutaxassislarining vazifasi ekanligini, kamina mazkur mavzuda o'z tushunchalarimni, shu sohada ijod qiluvchi bir qalamkash sifatida shaxsiy kuzatishlarimni bayon etayotganimni yana bir bor ta'kidlab o'taman.

Men yuqoridagi fikr-mulohazalarim bilan badiiy ertakchilik an'anaviy xalq ertakchiligining o'rnini egallaydi, folklor yo'qoladi, demoqchi emasman. Jahon ilmiy-fantastik adabiyoti insoniyat yulduzlaridan yulduzlarga ko'chib yuruvchi olis kelajakda ham o'ziga xos kosmik rivoyat, ertaklarga ehtiyoj tug'ilishini bashorat qilmoqda. Bu fikr, ayniqsa zamonaviy folklorshunos mutaxassislariga juda yoqib tushishini avvaldan sezib turibman.

Endi asosiy mavzumizga – hozirgi yoshlar nega ertak o'qimay qo'yganiga qaytaylik. Xo'sh, chindan ham hozirgi bolalar nega ertak o'qishmaydi? Chunki hozirgi, aniqrog'i, yaqin o'tmishdagi ertaklarning aksar qismi she'riy uslubda yozilgan.

O'zim bolalar shoiri bo'la turib, o'zimga qarshi chiqayotganim g'alati bo'lib ko'rinsa, ajabmas. Nachoraki, bu men anglab yetgan achchiq haqiqat. Shu bois bolalar uchun nasriy ertaklar yozishga o'tdim. Sababi – ertak-doston qanchalik ajoyib bo'lmasin, bolani, avvalo o'ynoqiligi, ohangdorligi bilan rom qiladi. Natijada bu jihat ustun kelib, aytilmoqchi bo'lgan maqsad-g'oya uning soyasida qolib ketadi. Binobarin, ertak-dostonning ta'sir kuchi ham shunga yarasha.

Nasriy ertak esa bolaning fikrini chalg'itadigan yuzaki jozibadan xoli, go'dak butun diqqat-e'tiborini asosiy g'oyaga qaratadi. Uni o'ziga asta-sekin, ohista singdirib boradiki, bu jarayonga xalaqit beruvchi boshqa narsalar yo'q. Bundan tashqari, nasriy ertakning she'riy ertakka nisbatan ta'sir kuchi ancha uzoqroq davom etib, bolaning dunyoqarashi shakllanishiga sezilarli darajada turki beradi. Balki shu sababli ham odam bolaligida yodlagan she'rlariga ko'ra, o'qigan nasriy ertaklarini ko'proq eslab qoladi.

Endi jahon bolalar adabiyotiga ham bir nazar tashlaylik. Janni Rodarining "Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida" nomi ertak-qissasi hali-hanuz dunyo bolalarining sevimli asari bo'lib kelmoqda. Amerikada Mark Tvenning qahramonlari Tom Soyer bilan Geklberri Finnga haykal o'rnatilgan. Daniya poytaxti Kopengagendan esa Hans Kristian Andersenning "Suv parisi" haykal timsolida namoyon bo'lib turibdi. Shu birgina misolning o'ziyoq ertak badiiy asar ekanligidan yaqqol dalolat bermayaptimi, axir?

O'zbek adabiyotida Xudoyberdi To'xtaboyev bolalarga bag'ishlab nafaqat ertak-qissalar, hattoki ertak-romanlar ham yozish mumkinligini o'z ijodida har tomonlama ko'rsatib berdi. "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" asarlarini o'qib, ulg'aygan odamlarning endilikda nevaralari zamonaviy shum bola – quvnoq Hoshimjonning sarguzashtlarini ulkan ishtiyoq bilan kuzatib borishadi. Bu bolalar an'anaviy xalq ertaklarini o'qishmas, balki. Lekin Hoshimjon timsolida o'zlarini, atrofdagi o'rtoqlarini, bag'oyat tanish hayotni ko'rib turganlari aniq.

Endi sizga bir savol, muhtaram o'quvchi. "Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida" yoki "Sariq devning o'limi" ertak-qissalari, mabodo, she'riy uslubda – doston shaklida yozilganida shunchalik dovrug' qozonarmidi, o'nlab yillar sinovidan muvaffaqiyat bilan o'tib, saqlanib qolarmidi? Bobolar bilan nabiralarni o'ziga birdek rom eta olarmidi?

Yoki Zohir A'lam qalamiga mansub "Afandining qirq bir pashshasi", Anvar Obidjonning Alamazon haqidagi ertak-qissalarini misol keltiraylik. Bu o'rinda ham shu asarlarni ertak-doston shaklida, ya'ni she'riy ko'rinishda umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. Gap ushbu ertak-qissalarda asosiy g'oyadan tashqari qo'shimcha fikr-g'oyalar ham borligida, ularni esa epik janrdan boshqa janrlar qolipiga sig'dirib bo'lmasligining o'zidagina emas.

Mazkur misollarda hamma gap yozuvchilar o'z oldilariga qo'ygan maqsadni imkon qadar to'laroq va atroflicha yoritib borishga qodir bo'lgan shakl hamda uslubni topa bilganlarida. G'oyalarni zamonaviy bolalarning ong-shuuriga qay tariqa singdirish yo'llarini topa olganlarida.

Yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Qay darajada ajoyib bo'lmasin, har qanday she'riy ertak yoki dostonda shoir o'zi xohlama-xohlamasa, o'ynoqilik, ohangdorlikka asosiy e'tiborini qarotishga majbur. Bu esa asar g'oyasi ikkinchi o'ringa tushib qoldi demakdir. O'quvchi bola ijodkor uning diqqatini nimaga tortsa, o'shanga ergashadi. Binobarin, "tashqi bezak"ka mahliyo bo'lib, asarning ichki mag'zi-mohiyatiga yetarlicha e'tibor qaratmasa, g'oyani eslab qololmasa, u aybdor emas mutlaqo. Nasriy ertak esa ortiqcha jimjimlardan xoli bo'lib, bola diqqatini asl mohiyatga yo'naltiradi, asosiy g'oyani uning idrokiga ohista va izchillik bilan singdirib boradi.

Endi yana bir o'ylang. Odamlar film ko'rishga ba'zan bir-ikki soat vaqtlarini qizg'anishadi-yu, nega endi oylab va hatto yillab davom etuvchi seriallarni ko'rishga, albatta vaqt topishadi? O'zbek televideniyesiga seriallar endigina kirib kelgan davrni bir eslab ko'ring-a! Agar yangilishmasam, dastlab Braziliyaning "Kanizak Izaura" va Meksikaning "Oddiy Mariya" seriallari namoyish etilgandi.

Yodingizda bo'lsa, bu hol o'ziga xos "epidemiya"ga aylanib qolgan edi. Navbatdagi serial odatda, kechki payt, nima uchundir odamlar ishdan qaytadigan vaqtda namoyish etilardi. U boshlanishiga bir necha daqiqa qolganida Toshkent

ko'chalarida avtobus-trolleybus to'xtab qolar, yo'lovchilarning yarmi haydovchilarga ergashib, bekatdagi oshxona, do'kon, kafe, barlarga kirib serialni ko'rsa, qolgan yarmi baqirib-chaqirib, jig'ibiyron bo'lib o'tirardi. Bu xil yalpi "tartibsizlik"ka juda ko'p bora shaxsan guvoh bo'lganman, bu qadar ishonch bilan gapirishimga sabab shuki, o'sha "jig'ibiyronlar" orasida o'zim ham bor edim-da!

Bir yarim soatlik film qahramonlarni tomoshabin qalbiga olib kirishga ulgura olmaydi, albatta. Hayotni, kundalik turmushni bor murakkabligi va mayda-chuyda tafsilotlari bilan tasvirovchi, inson ruhiyatini naq ko'ngil tubiga qadar ochib beruvchi serialda esa ana shu imkoniyat bor. **U qahramonni tomoshabin qalbiga olib kiradi, tanish-qadrdonga, eng yaqin kishilaridan biriga aylantirib qo'yadi.**

O'sha "epidemiya" davridan bir yarim yoshli, sochlari jamalak qizaloqni eslab qolganman. Tili endigina chiqq boshlagan go'dak akalari, opalarining ismini hali to'liq aytolmasdi. Biroq Meksika seriallaridagi murakkab nomlarni, misol uchun, "Isidora Kovarubio de Los-Lanos" singari ismlarni biror harfida yangilishmay va yana urg'uni joy-joyiga qo'yib, biyron-biyron tilda takrorlaganlari hali-hanuz ko'z o'ngimda...

Mavzudan sal chetlashdim, uzr. Bundan maqsad ertak-dostonga nisbatan nasriy-badiiy ertak o'quvchiga baayni serialdek kuchli ta'sir o'tkazishini ko'rsatish edi. Dostondagi mavhum umumiy obraz nasriy-badiiy ertakda jonli odamga aylanib, bola yuragiga kirib boradi. Go'dakning ko'z o'ngida o'zining illat-fazilatlariga ega bo'lgan, rasmanasiga kuyinib-suyunib yurguvchi bir tanish, qadrdonga aylanib qoladi.

Bola bunday ertakni chanqoqlik bilan bosh ko'tarmay o'qiydi. Undagi ijobiy obrazlarga taqlid qilgisi keladi. **Salbiy obrazlarga o'xshash kimsalarni kundalik hayotda ko'rib qolganida, ulardan uzoqroq yurishga urinadi.** Bu hol ota-ona berayotgan tarbiyaga yana bir muhim qo'shimcha emasmi, axir?! Ana nasriy-badiiy ertakning uzoq davom etguvchi ta'sir kuchi!

Hozirgi 13-14 yoshli boladan so'rab ko'rsangiz, 7-8 yoshlarida yodlagan she'rlarini eslolmaydi, ammo o'qigan ertaklarini hali unutganicha yo'q. Endi shu 13-14 yoshida ibratomuz nasriy-badiiy ertaklarni o'qisa, bu yog'i bir umrga eslab qolishi tayin. Zero bu pallada go'dakning ongi va qalbi nihoyatda ziyrak, sezgir, unga kuchli ta'sir ko'rsatgan narsa butkul muhrlanib, hech qachon o'chmaydi.

Men shular to'g'risida ko'p yillardan buyon o'ylab yurardim, masalaga har tomonlama yondashib ko'rib, o'zimcha qandaydir yo'l izlardim. Bir necha yillar avval noshirlar dostonlarga qiziqish qolmagani va aksincha, nasriy ertaklarga talab ortib borayotgani, lekin ular yo'qligi haqida kuyinib so'zlashganida esa ahdim qat'iyilashib, tamomila nasriy va hatto badiiy ertaklar yozishga o'tdim. Bu shunchaki bozor talabiga bo'ysunish emas, balki uzoq vaqt yetilib kelgan ichki ehtiyojning nihoyatda yuzaga chiqishi, yakuniy mahsuli bo'ldi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan o'zingiz ham tegishli xulosa chiqarib olasiz, deya umid qilaman.

Musiqaning boshqa san'at turlari bilan birgalikda rivojlanishida sohibqiron Amir Temurning hissasi katta. Uning hukmronligi davrida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o'tmagan. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlikni tarannum etish timsollariga aylangan.

Harbiy orkestrlar sadosi



Sohibqiron harbiy yurishlarda musiqiy asboblarga bo'lgan ixlosini unutmagan. Uning harbiy amaliyot tarixiga kiritgan qator kashfiyotlari bor. Masalan, mo'jaz shahar va qishloqqa hujum boshlashdan avval u yerga ehtiyotkorlik bilan karnaychi va nog'orachilar kiritilgan. Erta tongda bexos bu asboblarning yangrashi aholini dovdiratib qo'ygan hamda bu holat harbiylarga yordam bergan.

Aslida ajdodlarimizdan bizgacha meros bo'lib kelayotgan harbiy musiqalarning o'rni haligacha o'z mavqeyini yo'qotgani yo'q. Harbiylarga jangovar ruh, xalqqa esa ko'tarinkilik baxsh etadigan "marsh" tempidagi musiqalarni ijro etadigan mutaxassislar maxsus tayyorgarliklardan, turli sinovlardan o'tadi. Avvalo, bunday kasb egalari alohida iqtidorga ega bo'lish talab etiladi.

Qurolli Kuchlar akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilarning musiqa va san'atga qiziqishini oshirish, iste'dodini aniqlash va


har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularni Vatanga muhabbat, harbiy burchga sodiqlik, vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish, shuningdek harbiy orkestrlarning nufuzini oshirish maqsadida "Harbiy orkestrlar sadosi" ko'rik-tanlovining ikkinchi bosqichi o'tkazildi. Unda Qurolli Kuchlar akademiyasi, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi hamda okruglardan tashrif buyurgan harbiy orkestr jamoalari o'zaro kuy-navo borasida bahsga kirishdi. Ko'rik-tanlovni shaffof tarzda o'tkazish maqsadida musobaqaga malakali hakamlar hay'ati ham taklif etildi. Jami yetti jamoa ishtirok etgan mazkur tanlovda ishtirokchilar "Aziz yurtim", "Yangi O'zbekiston", "Jasorat", "Buyuk ipak yo'li" kabi bir qator "marsh" tempidagi musiqalarning ijrosini maromiga yetkazib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'ldi.

Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, uchinchi o'rinni Toshkent harbiy okrugi Chirchiq garnizoni, ikkinchi o'rinni Sharqiy harbiy okrug Farg'ona garnizoni hamda birinchi o'rinni Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy orkestri jamoalari egalladi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar va diplom bilan taqdirlandi.

Shuningdek, musobaqa ishtirokchilari 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarida konsert dasturlarini ham namoyish etishdi. "Tashkent city" hamda "Magic city" ko'ngilochar maskanlarida o'tkazilgan konsert dasturlari hamshaharlarimizga xush kayfiyat ulashib, bayramning yanada mazmunli o'tishiga xizmat qildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
 «Vatanparvar»



<p>VATANPARVAR</p> <p>MUASSIS</p>  <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p>www.mudofaa.uz</p>	<p>Tahririyat kengashi: general-mayor Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov</p> <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.</p>	<p>Bosh muharrir: podpolkovnik Ahror Ochilov</p> <p>ISSN 2010-5541</p> <p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Telefonlar: kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29</p>	<p>Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva Musahih: Zebo Sariyeva</p> <p>Buyurtma: V-5610 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 31 285 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.</p>	<p>Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.</p> <p>Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda.</p> <p>"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.</p> <p>1 2 3 4 5 6</p> <p>Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.</p>
	<p>t.me/mv_vatanparvar_uz t.me/mudofaavazirligi</p> <p>www.mv-vatanparvar.uz www.mudofaa.uz</p> <p>mudofaavazirligi</p> <p>mudofaavazirligi</p> <p>www.youtube.com/c/UzArmiya</p>			